

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI QABUL QILINGANIGA 33 YIL TO'LDI

HOKIM HISOB BERDI

YOKI SHAHARDAGI IJTIMOY-IQTISODIY O'ZGARISHLARGA QISQA NAZAR

Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar.

Xalq deputatlari Samarqand shahar Kengashining yaqinda bo'lib o'tgan sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasida belgilangan mazkur tamoyil o'zining amaliy ifodasini topdi.

Chunki sessiya ishida shahar hokimi F. Umarov joriy yil 9 oy yakuni bilan shaharni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida hisobot berdi.

Unda ta'kidlanishicha, o'tgan davrda sanoat hajmi 8,2 foizga, xizmatlar hajmi 18,9 foizga va qurilish hajmi 17,7 foizga o'sishi ta'minlangan.

Umumiy byudjet daromadlari 2,2 trillion so'mga yoki 104,1 foiz orttirib bajarilgan. Muhimi, orttirib bajarilgan byudjet mablag'larining asosiy qismi deputatlar bilan kelishgan holda shahardagi ijtimoiy masalalarini hal etishga yo'naltirilmog'da.



ISHSIZLIK QISQARYAPTI

Bugungi islohotlarning asosiy mazmuni ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'lib, o'tgan 9 oy davomida 41,1 ming ishsiz aholining bandligi ta'minlandi. Natijada ishsizlik darajasi yil boshidagi 5,2 foizdan 3,9 foizga qisqargan.

Bunda investisiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga 2,8 ming, tadbirkorlikni rivojlantirishda 35,3 ming, qishloq xo'jaligida 231 ming va qurilishda 2,6 ming nafar aholi bandligi ta'minlangan.

Ishsiz aholini kasb-hunarga o'qitishning vaucher tizimi asosida (xohlagan o'quv markazida bepul o'qitish) 2,6 mingdan ortiq aholi 21 turdagi kasb-hunar va xorijiy tilga o'qitilgan va bandligi ta'minlangan. Masalan, Kasbiy ko'nikmalar markazida bugungi zamon talabi asosida 400 nafar yoshlar 3 oylik kurslarda o'qimoqda. Samarqand kasb-hunarga o'qitish mintaqaviy markazida 78 nafar fuqaro 3 oylik kurslarda o'qimoqda.

Shahrimizda xorijga ketgan migrantlar soni 66 ming nafar, shundan, ishlash uchun ketganlar 35 ming nafarni tashkil etadi. Yil boshidan 19,3 ming nafar fuqarolar qonuniy tartibda Buyuk Britaniya, Koreya, Germaniya, Slovakiya, Yaponiya, Bolgariya, Xorvatiya kabi davlatlarga yuborilib, yuqori daromadli ishga joylashtirilgan.

(Davomi 2-sahifada)



QONUN USTUVOR YURTDA YOSH AVLOD BARKAMOL O'SADI

Shahar maktabgacha va maktab bo'limi tomonidan 8-dekabr — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 33 yilligi munosabati bilan ijodkor o'quvchilar o'rtasida tanlov o'tkazildi.

Jumladan, "Konstitutsiya baxtimiz qomusi" mavzusida insholar, "Konstitutsiya - kelajagim mash'ali" mavzusida rasmlar, "Konstitutsiya o'quvchilar nigohida" mavzusidagi ijodiy ishlar tanlovlarida shahardagi barcha umumta'lim maktablarining eng mahoratli, badiiy ijodga qiziquvchi o'quvchilari ishtirok etdi.

— Inson qachon o'zini baxtli, deb hisoblaydi, albatta, huquq va erkinliklari qadr topgan, burch va vazifalarini erkin, munosib sharoitlarda bajarish imkoniyati yaratilgan jamiyatda, — deydi Samarqand shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi shoh'ba rahbari Bahrom Maxmatqulov. — Buning uchun jamiyatda qonun ustuvorligi ta'minlanishi va albatta, fuqarolarning huquqiy madaniyati yuksak bo'lishi zarur. Bugungi tanlovning bosh maqsadi o'quvchilarga Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati, uning inson hayotida

tutgan ahamiyati nimadan iborat ekanligini tushuntirishdan iborat. Qonunlarning mohiyatini tushungan o'quvchi ertaga o'z haq-huquqlari va majburiyatlarini to'laqonligi anglab yetadi. Va o'zini ham, yurtini ham asrab, avaylab, uning taraqqiyoti uchun munosib hissa qo'shishga intiladi. Huquqiy madaniyat shakllangan jamiyat barqaror va farovon bo'ladi.

Tanlov hakamlar hay'ati xulosasiga ko'ra, "Konstitutsiya baxtimiz qomusi" mavzusidagi insholar tanlovining 8-10-sinf o'quvchilari o'rtasida 1-o'rinni 41-maktab o'quvchisi D.Abdusalomova, 2-o'rinni 62-maktab o'quvchisi P.Axorova va 48-maktab o'quvchisi J.Saidovlar, 3-o'rinni esa 37-maktab o'quvchisi P.Quvvatova va 14-maktab o'quvchisi F.Farhodova hamda 33-maktab o'quvchisi S. Mahmudjonovlar egalladi.

5-7-sinf o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan

"Konstitutsiya - kelajagim mash'ali" mavzusidagi rasmlar tanlovida 1-o'rinni 36-maktab o'quvchisi S.Turdimurodova, 2-o'rinni 54-maktab o'quvchisi R.Yakubova va 48-maktab o'quvchisi A.Kavsharovalar hamda 3-o'rinni 17-maktab o'quvchisi X. Bahriyeva va 68-maktab o'quvchisi M.Xusenovalar qo'lga kiritdi.

"Konstitutsiya o'quvchilar nigohida" mavzusidagi ijodiy ishlar tanlovida umumta'lim maktablarining 5-9-sinf o'quvchilari ishtirok etdi. Unda 1-o'rinni 32-maktab o'quvchisi S.Baxtiyorova, 2-o'rinni 82-maktab o'quvchisi S.Dehqonova, 57-maktab o'quvchisi S.Akbarova va 60-maktab o'quvchisi F.Faxriddinvalar hamda 3-o'rinni 42-maktab o'quvchisi Z. Rustamova va 36-maktab o'quvchisi A.Mahmudovalar egalladi.

G'olib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan munosib taqdirlandi.

"SAMARQAND" SUHBATI

HUQUQ VA ERKINLIK TARTIBSIZLIK DEGANI EMAS

Odamlarda paydo bo'lgan har qanday savolga javob berish mumkin. Gap faqat javob beruvchining savuyasi, uning ilmiga bog'liq. Shu jihatdan, Bosh qomusimiz qabul qilingan kun oldidan odatda ijtimoiy tarmoqda ko'p muhokama qilinadigan, biroq mutasaddilar, aniqrog'i rasmiylar tomonidan fikr bildirilmaydigan mavzuni o'rganishga harakat qildik. Jumladan, maktab o'quvchilarining tashqi ko'rinishi bilan bog'liq bir necha savollar bilan viloyat adliya boshqarmasi xodimi Nuriddin TURSUNOV hamda Samarqand shahar 65-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi Nodira Umarovalarga murojaat qildik.

- Maktab o'quvchisining tashqi ko'rinishi bo'yicha erkinligi Konstitutsiyaning aynan qaysi moddalar bilan himoyalangan? Bu huquq "shaxsiy hayot daxlsizligi" tushunchasiga kiradimi? (Konstitutsiya va "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun o'quvchi tashqi ko'rinishiga qanday munosabat bildiradi?)

N.TURSUNOV:

- Maktab o'quvchisining tashqi ko'rinishi (soch, kiyim, aksessuar, soqol va h.k.) bo'yicha erkinligi Konstitutsiyaning alohida moddasi bilan tartibga solinmagan bo'lsa-da, mazkur huquq va erkinliklar Konstitutsiyada alohida boblar bilan mustahkamlangan. Shaxsiy huquq va erkinliklar (VII bobi) hamda Inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlaridan

(X bobi) kelib chiqadi. Jumladan, Konstitutsiyaning 27-moddasida har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga egaligi, 54-moddasida insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadi ekanligi, davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlashi, 55-moddasida har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli ekanligi belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 60-moddasiga asosan fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa insonlarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi

qonunining 48-moddasida ta'lim oluvchilar nizom (ta'sis hujjati) talablariga, ichki tartib-qoidalariga, vaqtincha yashash joylari qoidalariga va ta'lim faoliyatini tashkil etish hamda amalga oshirishga oid boshqa ichki hujjatlar talablariga rioya etishi shartligi belgilangan. "Ta'lim to'g'risida" gi qonunning 49-moddasiga asosan ta'lim tashkilotlarida ta'lim oluvchilarning kiyim-boshiga doir talablar Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan "Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun zamonaviy yagona maktab formasini joriy etish tartibi to'g'risida" gi Nizomda o'quvchilar tomonidan maktab formasini kiyishda rioya etilishi lozim bo'lgan talablar, umumta'lim maktablarida o'g'il va qiz bolalarning tashqi ko'rinishi, sochi va soqol uchun talablar belgilangan hamda mazkur talablarni buzgan holda umumta'lim maktablariga kelishlariga yo'l qo'yilmasligi ko'rsatilgan.

Nizomning 18-bandiga asosan o'quvchilarning maktab formasini kiyish tartibiga rioya qilmaslik ta'lim muassasasining ichki tartib-qoidalarini buzish, deb baholanadi va bunday o'quvchilarga ogohlantirish,

kundalik daftariga qayd etish, tushuntirish ishlarini olib borish uchun ota-onasini xabardor qilish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ta'lim muassasasidagi yig'ilishlarda ota-onalar ishtirokida muhokama qilish choralari qo'llanishi mumkin.

- O'smirlik davrida tashqi ko'rinish bo'yicha bosim bolaning o'ziga ishonchi va ruhiy holatiga qanday ta'sir qiladi? Charos opa ish faoliyatingiz davomida tashqi ko'rinishi sabab o'zini past baholagan o'quvchilarni uchratganmisiz va ularda kuzatilgan eng og'ir holatlar nimalardan iborat bo'lgan?

N.UMAROVA:

- O'smirlik davri taxminan 10-11 yoshdan boshlanib 16-17 yoshgacha davom etadi va bu davr shaxsiyat qayta shakllanadigan, psixologik o'zgarishlar eng kuchli bo'ladigan bosqich hisoblanadi. Aynan shu paytda o'smir "Men kimman?", "Qanday inson bo'laman?" degan savollarga javob izlay boshlaydi. Bolada mustaqillikka ehtiyoj ortadi va emotsional beqarorlik kuchayadi. Tana o'zgarishlari tufayli o'zidan norozilik ham uchrashi mumkin. Agar shu davrda bolaga tashqi ko'rinishi bo'yicha bosim o'tkazilsa, bu uning shaxsiy rivojiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. U o'z fikrini aytmamasligi, o'ziga ishonchsizlik, qo'rquv, kelajakdan xavotirlanish kabi holatlarni boshdan kechiradi. Bunday bosimning salbiy oqibatlari ko'pincha kattalik davrigacha davom etishi mumkin.

(Davomi 4-sahifada)

HOKIM HISOB BERDI

YOKI SHAHARDAGI IJTIMOY-IQTISODIY O'ZGARISHLARGA BIR NAZAR



(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)
BUNYODKORLIK AVJIDA ...

Shaharda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmani yanada rivojlantirish, aholining turmush darajasini oshirish, tadbirkorlar uchun qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida ko'plab qurilish-ta'mirlash ishlari olib borilmoqda.

Xususan, joriy yilda 7200 ta xonadondan iborat 77 ta ko'p qavatli uylarni foydalanishga topshirish rejalashtirilgan. Hozirga qadar 896 ta xonadonli 8 ta shundan, "Yangi O'zbekiston" massivlarida 1788 xonadonli 22 ta uy-joy foydalanishga topshirilgan.

Renovatsiya dasturi asosida shaharning Temiryo'l orti hududida 16 ming nafar aholi yashaydigan 301 gektar maydonda 100 ming aholiga mo'ljallangan shaharcha barpo etish boshlandi. Ushbu hududning arxitekturaviy qiyofasi zamonaviy ko'rinishga kelishi bilan birga, aholi uchun 4 ta (65 gektar) xiyobon, 8 ta tibbiyot muassasasi, 32 ta bog'cha va 5 ta maktab quriladi.

Shirin massivdagi 665 gektar hududda 180 ming aholiga mo'ljallangan 250 dan ziyod ko'p qavatli uy-joylar, 40 dan ortiq ijtimoiy soha obyektlari, 25 dan ortiq mehmonxona va ishbilarmonlik va biznes markazlari, sport majmualari quriladi.

Samarqand shahrida dasturlar doirasida respublika budjeti mablag'lari hisobiga 17 ta obyektga qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda 2 ta maktab, 4 ta tibbiyot, 1 ta oliy ta'lim, 1 ta kasb-hunar maktabi, 1 ta yo'l, 1 ta markazlashgan issiqlik qozonxona foydalanishga topshirildi.

"KAMBAG'ALLIKDAN FAROVONLIK SARI"

Qayd etilishicha, mazkur dastur doirasida 2,8 ming oilani kambag'allikdan chiqarib, kambag'allik darajasini 4,8 foizdan 3,6 foizga tushirishga erishilgan. Buning uchun reyestrda kiritilgan kambag'al oilalarning har biri bo'yicha "individual reja" ishlab chiqilib, 265 ta tashkilot rahbar va o'rinbosarlarga birlashtirilgan. Ushbu rahbarlar ko'magida 12,1 ming fuqaroga barqaror bandlik xizmatlari ko'rsatilgan.

Jumladan, 1,5 ming nafari ishga joylashtirilib, 4,1 ming nafari tadbirkorlikka jalb qilingan, ming nafariga imtiyozli kredit ajratilgan, 220 nafari kasb-hunarga o'qitilgan, 5211 nafariga subsidiya va ssuda ajratilgan va boshqa ijtimoiy hamda tibbiy xizmatlar ko'rsatilgan.

"Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi asosida respublika budjetidan ajratilgan 2,7 milliard so'm mablag' hisobiga 2 ta og'ir mahalla infratuzilmasi yaxshilangan.

Xususan, ajratilgan 1,3 milliard so'm mablag' hisobidan 2 ta mahallada 3 ta suv nasosi o'rnatilib, 1,1 kilometr sug'orish tarmog'i, 560 ta xonadonning 16 gektar tomorqalarida sug'orish tizimi yaxshilangan.

Bundan tashqari, ushbu mahallalarda 1,4 milliard so'm mablag' hisobidan, 125 ta beton ustun, 8 ta transformator o'rnatilgan, 10,4 kilometr elektr tarmog'i



tortilib, aholi va tadbirkorlarning elektr ta'minoti yaxshilangan.

Darvoqe, kam ta'minlangan oilalarni kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rishi bo'yicha 12158 ta oilalarga 1 million so'mlik kompensatsiya — yordam puli ajratilgan.

YASHIL HUDUDLAR YETARLI(MI?)

Shaharda ko'p xonadonli uylar qurish, kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash bilan bir qatorda, yashillik darajasini oshirish ham o'ta muhim hisoblanadi.

Chunki, shaharsozlik normasi bo'yicha bir kishiga yirik shaharlarda 4 kv metr bog' to'g'ri kelishi kerak bo'lsa, Samarqand shahrida (aholisi soni 600,8 ming kishi) bu ko'rsatkich 0,2 kv metrni tashkil etib, belgilangan normadan 20 barobar kam.

Samarqand shahrida aholi dam oladigan, yosh bolalar bilan boradigan joyning o'zi yo'q. Shu sababli shaharning O'zbekiston ko'chasidagi sobiq harbiy hospital o'rnida 5,4 gektar maydonda "Bolalar va yashil jamoat parki" tashkil etilmoqda.

Bundan tashqari, Qorasuv massivida Qoradaryo bo'yidagi 116 gektar maydonda "Yangi O'zbekiston" bog'i tashkil etiladi. Hozircha 36 gektar hududda "Yangi O'zbekiston bog'i" tashkil etildi. Vatandarlar mahallasida 7 gektar maydonda, So'g'diyona massivdagi 3 gektar maydonda ham aholi dam olishi uchun bog' qurilyapti.

Bularni qurish hisobidan yil yakunigacha Samarqand shahrida bir kishiga o'rtacha 1,1 kvadrat metr bog' to'g'ri keladi.

GILAMLAR AQSHGA SOTILYAPTI

Hokim hisobotiga ko'ra, bugungi kunda shahardagi 158 korxonada dunyoning 41 davlatiga eksport amalga oshirilmoqda. Yangi bozorlarni topish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijasida Amerikaga gilam, Singapurga quruq meva hamda Malayziyaga gilos va bo'yoq sotilyapti.

Umuman, joriy yilning 10 oyida 284,4 million dollarlik mahsulot eksport qilingan. Yil yakuniga qadar bu ko'rsatkich yana 40 million dollarga oshadi.

Asosiy drayver bo'lgan turizm sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida Samarqandga kelayotgan sayyohlar soni yildan-yilga ortib bormoqda.

million xorijiy, 5 million mahalliy sayyoh tashrif buyurib, ularning soni qariyb ikki barobarga oshgan. Sayyohlarning qolish kunlari 2,6 kundan 3 kungacha, turizm xizmatlari eksporti 538,2 million dollarni tashkil etib, 79 foizga oshgan.

Turistlariga shart-sharoitlar yaratish maqsadida yilning o'tgan davrida 194 ta mehmonxonada, xostel va oilaviy mehmon uylari tashkil etilib, ularning soni 822 taga, o'rinlar soni esa 21 mingga yetkazilgan.



Shuningdek, 63 ta yangi turizm kompaniyalari faoliyati yo'lga qo'yilgach, ularning soni 452 ta bo'lgan.

ASOSIY E'TIBOR—ERTAMIZ EGALARIGA

Hokim hisobotida yoshlarga sifatli ta'lim va tarbiya berish, zamonaviy kasb va hunarlar, xorijiy tillarni o'rgatish, hayotda munosib o'rin topishi uchun zarur sharoitlar yaratish asosiy vazifa va birlamchi ekanligi qayd etilgan.

Bildirilishicha, shahar aholisining 52 foizi yoki 314 428 nafari 30 yoshgacha, shundan, 125 540 nafari 14—30 yoshgacha bo'lgan yigit-qiz tashkil etadi. "Yoshlar balansi"ga asosan xatlovda aniqlangan 1133 nafar ishsiz yoshlarimiz 35 nafar rahbarlarga birlashtirilgan, ko'rsatilgan yordamlar evaziga bandligi ta'minlangan.

"Yoshlar daftari"dagi 1345 nafar yoshlarga ko'rsatilgan o'z-maklar evaziga 1309 nafari yoki 97 foizi daftardan chiqarilgan.

Yigit-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish va ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida dastur doirasida 114 nafar yoshlarga 29 milliard so'm kredit ajratilgan.

"Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida 124 ming nafar yoshlar elektron platformaga kiritilib, ularning 115 ming nafari (92,7 foizi) olimpiada doirasidagi musobaqa hamda tanlovlarga qamrab olingan.

TEZ YORDAM XALQQA YAQINLASHDI

Sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish borasidagi tasdiqlagan qaror va farmonlarga muvofiq tibbiyot sohasida

ham sezilarli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Qayd etilishicha, Samarqand shahrida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishning yangi tizimi joriy etilgan. Sohoni raqamlashtirish va "Tibbiyotda 90 kunlik o'zgarishlar" dasturi uchun mahalliy budjetdan 540 million so'm sarflangan.

Tizimni to'liq raqamlashtirish maqsadida esa 8,9 milliard so'm mablag' ajratilgan.

Respublika shoshilinch tez tibbiy yordam markazi shahardan 7-8 kilometr uzoqda joylashganligi hisobga olinib, tez tibbiy yordamga muhtoj bemorlarga o'z vaqtida xizmat ko'rsatish maqsadida Samarqand shahar markaziy shifoxonasida qabul bo'limi negizida tez tibbiy yordam — "Shoshilinch qabul bo'limi" tashkil etilgan.

Oilaviy poliklinikaga kelgan fuqarolarga qulaylik yaratish maqsadida kutish zallari tashkil etilib, qo'shimcha o'rindiqlar o'rnatilgan va shaffoflik tizimi yo'lga qo'yilgan. Nogiron shaxslarga va homiladorlarga maxsus o'rindiqlar o'rnatilgan.

Tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash uchun markaziy shifoxonada yotoq o'rinlarini shoshilinch hollarda foydalaniladigan chaqiruv tugmalari bilan ta'minlangan.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari uchun qulay sharoit yaratish maqsadida muassasa binolarida nogironlar va harakati cheklangan shaxslar uchun qulaylik yaratuvchi moslamalar bilan jihozlandi.

Hisobotda keltirishiicha, 2026-yil Investitsiya dasturi asosida 24 milliard so'm mablag' evaziga Samarqand shahar markaziy shifoxonasi negizida markaziy-diagnostika bo'limi qurilishi, 3,5 milliard so'm mablag' evaziga 3 va 7-oilaviy poliklinikalarda mukammal ta'mirlash, 19-oilaviy poliklinikada 7 milliard so'm mablag'ga rekonstruksiya ishlari amalga oshirilishi taklifi kiritilgan.

NAZORAT SIFAT UCHUN



Bugun barcha aholi punktlarida suv filtrlash shoxobchalariga ko'zingiz tushadi. Nega? Ichimlik suvi tarmog'i orqali yetkazilayotgan suv iste'molga yaroqsizmi? Bugun bu savollar ko'pchilikni qiziqtirayotgani shubhasiz. Shu bois, aholiga yetkazilayotgan ichimlik suvi sifati, shuningdek, oqova suv chiqarish tizimlarining holati bo'yicha nazorat tadbirlari muntazam olib borilmoqda.

Jumladan, joriy yilning o'tgan davri mobaynida iste'molchilarga yetkazilayotgan ichimlik suvi sifatini o'rganish bo'yicha viloyat miqosida 1 559 ta tahlillar olinib, 46 ta holatda ichimlik suvi sifati talab darajasida emasligi aniqlandi.

Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv chiqarish tizimlarida jami 339 ta noqonuniy ulanish holatlari aniqlangan bo'lsa, shundan 286 ta holat ichimlik suvi hamda 53 ta holat oqova suv tarmoqlariga oid.

Xususan, Samarqand shahrining So'zangaron, Qo'rg'oncha, Kamoliddin Behzod, Xo'ja Sa'd mahallalarida ichimlik hamda oqova suv tarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulanib foydalanish holatlari aniqlanib, inspeksiya tomonidan tegishli tartibda ma'muriy jarimalar qo'llanildi.

Viloyat hududiy Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan qoida buzilishlar bo'yicha qo'llanilgan ma'muriy jarimalar 469 ta holatda 1 mlrd 225 mln 984 ming so'mni tashkil etdi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilgan ishlar (jinoiy ishlar) 11 ta bo'lib, miqdori 11 mlrd 628 mln so'mni tashkil etadi.

Yer osti ichimlik suvi quduqlarini o'rganish bo'yicha 393 ta nazorat tadbiri o'tkazilib, shundan, 227 ta holatda kamchilik aniqlandi.

Shuningdek, inshootlardagi 115 ta zararsizlantirish uskunasi o'rganilib, 22 ta holatda kamchiliklar aniqlandi.

Budjet tashkilotlarida ichimlik suvi ta'minoti va oqova suv chiqarish tizimlaridan foydalanish holatlarini o'rganish bo'yicha 330 ta nazorat tadbiri o'tkazilib, o'rganishlarda 101 ta mansabdor shaxsga nisbatdan 258,1 mln so'mlik ma'muriy jarima qo'llanildi.

Xususan, joriy yilning noyabr oyida Samarqand shahri hududida joylashgan 12 ta davlat tashkilotlarida ichimlik hamda oqova suv tarmoqlaridan foydalanish holati o'rganilganda, 2 ta budjet tashkiloti tomonidan foydalanishda qoidabuzarliklar aniqlanib, mas'ul xodimlarga nisbatan ma'muriy jarima rasmiylashtirildi.

Inspeksiya tomonidan hududlarda 160 ta avariya holatlari aniqlanib shundan, 143 tasi ichimlik suvi tarmog'ida, 17 tasi oqova suv tarmog'ida qayd etildi va tegishli ko'rsatmalar kiritildi.

Umuman, inspeksiya tomonidan sohada aniqlangan kamchiliklar bo'yicha 225 ta ko'rsatma kiritildi. 197 ta texnik shart o'rganilib, 30 ta kamchilik aniqlandi.

Ichimlik suvi va oqova suv tarmoqlarining holati inson hayoti bilan chambarchas bog'liq. Shunday ekan, barcha o'z mas'uliyatini his etgan holda yondashuvni amalga oshirsa, tizim bilan bog'liq muammolar bizni bezovta qilavermaydi. Aksincha bo'lsa, bir soat suvsiz qolgan vaqtingizni eslash kifoya.

Habibullo ESHQUVVATOV,
viloyat hududiy
nazorat qilish inspeksiyasi
boshlig'i o'rinbosari



DABDABANI O'YLAB TOPGANLAR...

To'y – ikki yoshning bir-biriga halol bo'lishini, oilaning boshlanishi, mas'uliyatning qabul qilinishi, halollikning el-yurt oldida e'tirof etilishini ta'minlagani uchun o'zbek xalqining eng qadimiy va milliy qadriyatlarini qatoridan o'rin olgan. Yurtimizdagi aksariyat urf-odatlar singari to'y tantanasi ham asosan halollik, me'yor va samimiyat tamoyillariga tayanib shakllangan.

Ammo, bugun ayrim to'ylarda ko'z-ko'z qilish hamda ortiqcha sarf-xarajat va dabdabalar kuzatilmog'da. Bunday holatning ildizi qayerdan boshlangan? Ehtimol, tarixda moddiy boy, lekin ma'naviy jihatdan qashshoq bo'lgan kishilar tomonidan shakllantirilgan ko'rinishlar asta-sekin urf-odat tusiga kirib qolgan. Chunki manan yetuk inson — isrof haqidagi ogohlantirishlarni ham biladi, ham unga amal qiladi.

Dasturxonida nimalar bor, to'yxona nechta odamga mo'ljallangan, qaysi mashhur san'atkor taklif qilingan, kabi savollarga javob topish orqali to'yga baho berilar ekan. Demak, ma'naviy qoloqlashib bormog'damiz. Bugun yana bir omil bor — ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri. "Samarqandliklar boy-da!", degan jumla bir blogger qiz tomonidan aytilgan bo'lsa-da, qisqa vaqt ichida "trend"ga aylandi. U shunchaki hazil sifatida tilga olingan bo'lishi mumkin, lekin jamiyatga u ruhiy ta'sir ko'rsatmog'da. Ko'pchilik "Biz samarqandlikmiz — boymiz!" degan kayfiyatda dabdabaga berilib, to'y-ma'rakani o'zini reklama qilish vositasiga aylantira boshladi.

Aslida esa qadriyatni "kim katta to'y qildi?" savoli emas, "kim barakali hayot boshladi?" degan savol belgilashi kerak emasmi?

Ijtimoiy tarmoqlarda "Samarqandliklar boy-da!" degan jumla zamonaviy aylanayotgan bir paytda, tarix bizga mutlaqo boshqa manzarani ko'rsatadi. Chunonchi, yurtimizning faxri, millat ma'rifatini uyg'otgan jadidlar peshvosi Mahmudxo'ja Behbudiy ham aynan samarqandlik edi. U zamonasining eng ziyoli va eng sardaromad kishilaridan biri bo'lgan, ya'ni moddiy imkoniyatlari keng shaxs hisoblangan. Ammo, tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Behbudiy o'g'lining to'yi uchun hashamatni emas, odobni tanlagan. To'y samimiy, tartibli va me'yor doirasida o'tkazilgan. To'yda ortiqcha dabdaba bo'lmagan. Lekin ma'naviy yuksaklik bo'lgan. Shu bois Behbudiy nafaqat ma'rifatparvar, balki, qadriyatni to'g'ri anglagan inson sifatida ham ibrat bo'lib qolgan. Agar "Samarqand boy", deb tanilsa, boyligi son-sanoqsiz sarf-xarajatlarda emas, balki, bunday ibratlarda ko'rinishi kerak emasmi?

Xabaringiz bor! O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-sentyabrda "Umumiy ovqatlanish korxonalarida hosil bo'ladigan oziq-ovqat chiqindilaridan samarali foydalanish va ularning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish hamda ortiqcha isrofgarchilikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan mamlakatimizda 2026—2030-yillar "Dolzab oziq-ovqat xavfsizligi davri", deb e'lon qilindi.

2026-yildan boshlab to'ylar, oilaviy tantanalalar, ma'raka va marosimlar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2019-yil 14-sentabrdagi qo'shma qarori bilan tasdiqlangan "To'ylar, oilaviy tantanalalar, ma'raka va marosimlarni o'tkazishni tartibga solish to'g'risida"gi nizom talablari asosida o'tkazilishi qat'iy nazoratga olinishi belgilanmog'da.

Shu maqsadda, joriy yilning 24-oktabr kunidan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Musulmonlari idorasi, O'zbekiston Mahallalar uyushmasi, Respublika Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, "Nuroni" jamg'armasi birgalikda dabdabali to'ylar hamda boshqa oilaviy marosimlarni ixchamlashtirishga qaratilgan 90 kunlik "Maromiylik" chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. Bu loyihani amalga oshirar ekanmiz, majburlash yo'lini tanlayotganimiz yo'q. Tushuntirish ishlarini olib bormog'damiz.

Ushbu tartiblar milliy qadriyatlarni oyoqosti qilish emas, aksincha, oilaviy marosimlarni me'yor bilan, samimiy va ma'naviy mazmun bilan o'tkazishga chaqiradi. Shunday qilib, bugungi qarorlar, targ'ibot va "Maromiylik" tashabbusi orqali to'ylarni zamon bilan hamnafas, lekin ma'nosidan chetga chiqmagan holda o'tkazish imkoniyati yaratilmog'da. Bu tashabbus — milliy qadriyatlarimizga qaytish, oilalarga samimiy muhitda quvonch va baraka ulashish, ortiqcha sarf-xarajatlarsiz, halol va me'yorli hayot boshlashga chaqiradi. Muhimi, to'ylarimizda isrofgarchilik kamaysa, ma'naviyat yuksaladi. Tantanalarning mazmuni keraksiz dabdaba emas, balki, samimiyat va halollik bo'lishi eng to'g'ri yo'ldir.

Nigora SADINOVA,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi
shahar bo'linmasi rahbari

ERTAMIZ KIMNING MAHORATIGA BOG'LIQ?

Bugungi tez sur'atlar bilan taraqqiy etayotgan davrda yosh avlod tarbiyasi jamiyatning eng muhim vazifasi bo'lib qolmog'da. O'quvchilarning qobiliyatlari, intellektual salohiyati va ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish jarayonida o'qituvchi shaxsining mahorati, bilimdonligi va ruhiy tayyorgarligi beqiyos ahamiyat kasb etadi. Chunki, pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki, yosh qalblarning yo'l ko'rsatuvchisi, ularning ichki olamini anglab, kelajak sari yetaklay oladigan murabbiydir.

Avvalo, qobiliyat tushunchasi haqida to'xtalish lozim. Qobiliyat — shaxsning ma'lum faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga imkon beruvchi ichki salohiyat bo'lib, u bilim yoki ko'nikmadan tubdan farq qiladi. Bilim o'rganish jarayoni natijasida hosil bo'lsa, qobiliyat — ana shu bilimni egallashni osonlashtiradigan tug'ma yoki orttirilgan imkoniyatlar majmui hisoblanadi. Qobiliyatning poydevori kuzatuvchanlikdir: inson atrofidagi hodisalarni chuqur fahmlab, alomatlarini ajrata olgani sari uning tafakkuri kengayadi, ijodiy tasavvuri rivojlanadi. Shunday ekan, o'quvchining qobiliyatini anglash va uni to'g'ri yo'naltirish o'qituvchining eng mas'uliyatli vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Shu nuqta nazardan qaraganda, pedagogik tashxisning roli yanada ahamiyatli tus oladi. O'qituvchi o'quvchining rivojlanganlik darajasini, intellektual imkoniyatini, shaxsiy sifatlarini aniqlab, dars jarayonini shunga mos ravishda tashkil etishi zarur. Psixologik tashxis o'qituvchiga har bir o'quvchini alohida shaxs sifatida ko'ra



olish, uning imkoniyat chegaralarini aniqlash va o'ziga xos yondashuvni tanlash imkonini beradi. Chunki har bir bola — alohida olam, alohida dunyo. Bu dunyoni anglash uchun o'qituvchida nafaqat ilmiy tayyorgarlik, balki sezgir yurak, tafakkur kengligi va ruhiy hushyorlik bo'lishi shart.

Pedagogik mahorat esa o'z-o'zidan

shakllanmaydi. U tinimsiz izlanish, professional tajriba va eng muhimi, kasbga bo'lgan muhabbat natijasida kamolga yetadi. O'qituvchining dars jarayoni samaradorligi — uning ijodkorligi, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llashi, adolatli baholashi va darsni qiziqarli tashkil eta olishi bilan belgilanadi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim jarayonida, pedagogning ruhiy barqarorligi ham muhim. Turli holatlar, kutilmagan vaziyatlar, yoshlarning o'ziga xos xulq-atvori o'qituvchidan kuchli stressga chidamlilikni talab qiladi. Stressni yengib sabr bilan yondasha olgan pedagog o'quvchilarga ham ruhiy barqarorlik namunasi bo'ladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim jarayonining tabiiy va samarali kechishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, muvaffaqiyatli ta'limning markazida — mahoratli, bilimdon, sezgir va fidoyi o'qituvchi turadi. Uning pedagogik mahorati, psixologik tayyorgarligi, qobiliyatlarni to'g'ri baholay olishi yoshlardagi iste'dod va salohiyatni to'liq namoyon qilishga imkon beradi. Kelajagimiz poydevori bugungi ta'lim tizimida qurilayotgan ekan, bu poydevorni mustahkamlaydigan asosiy kuch aynan o'qituvchining mahoratidir.

Shoira NAVRO'ZOVA,
23-umumiy o'rta ta'lim maktabi
o'qituvchisi

"IXTIROCHILIKKA QADAM" — IQTIDORLI O'QUVCHILAR TANLOVI

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan umumta'lim maktablarining ixtirochilik, ratsionalizatorlik va texnik yangiliklarga qiziquvchi o'quvchilarini rag'batlantirish, ularning iqtidorini rivojlantirishga qaratilgan "Ixtirochilikka qadam" tanlovining shahar bosqichi bo'lib o'tdi.



Unda shahardagi umumta'lim maktablarining eng sara ixtirochi o'quvchilari o'zlarining ta'lim, axborot texnologiyalari, yashil energiya, ekologiya, iqlim o'zgarishi va qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi loyihalari bilan qatnashdi.

— Texnologiya darslarida ustozimiz bilan turli ishlanmalar ustida ishlab, turli transport vositalarini maketlarini yasaganman, — deydi 73-umumta'lim maktabi o'quvchisi Islomxon Davronov. — Tanlovni eshitib, elektr quvvatida ishlaydigan yuk mashinasi maketini yasab, tanlovda qatnashdim. Bugungi kunda avtotransport vositalarini elektr quvvatiga o'tkazish orqali havo ifloslantirishning oldini olishga harakat qilayotgani barchaga ma'lum. Vaqti kelib yuk tashuvchi transport vositalari ham shu bosqichga o'tishi zarurligini hisobga olib shu loyihaga qo'l urdim.

Tanlov yakunida hakamlar hay'ati bugungi kunda ahamiyatli bo'lgan eng sara loyihalarni saralab, keyingi bosqich ishtirokchilarini aniqlab olishdi.

A. DOLIYEV

FAZOVIIY O'YINLAR BILIM BERISHGA QARATILGAN

Samarqand shahridagi School 21 kampusida Space GameJam fazoviy o'yinlar tanlovi o'tkazildi.

Tanlov O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi "O'zbekkosmos" kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi, School 21, EastGames hamda Yandex Uzbekistan hamkorligida tashkil etildi.

Unda mamlakatimizning turli hududlaridan kelgan 200 nafardan ortiq ishtirokchi 48 soat davomida kosmik yo'nalishdagi o'yinlarning ilk prototiplarini yaratish bo'yicha o'z mahoratlarini sinovdan o'tkazishdi. Tanlov dasturchilar, rassomlar, o'yin dizaynerlari, talabalar va o'yinlar hamda kosmosga qiziquvchi yoshlarni rag'batlantirishga qaratilgan.

— Tanlovdan ko'zlangan maqsad yoshlarga dasturlash, o'yinlar va kosmos — bu haqiqiy loyihalar va kasblar ekanligini ko'rsatish, ushbu yo'nalishlar hozirda va aynan shu yerda mavjudligiga guvoh bo'lishlariga erishishdan iborat, — deydi School 21 ijrochi direktori Zarina Luxmanova. — GameJam formati — bu g'oya, jamoa, muddatlar va 48 soatdan so'ng aniq natijadan iborat bo'lgan, industriyaning ixchamlashtirilgan versiyasi hisoblanadi. Bu orqali biz kelajakda amalga oshirishimiz mumkin bo'lgan ulkan loyihalarga asos solishimiz mumkin.

Nizomga ko'ra, Space GameJam tanlovida ishtirok etgan eng yaxshi loyihalar koinotni o'rganish bo'yicha milliy ta'lim platformasi — "Step to the Moon"ga kiritilishi va maktab o'quvchilari uchun interaktiv dastur sifatida mamlakat miqyosida ommalashtirilishi ko'zda tutilgan.

— O'yin mexanizmlari nafaqat yoshlarni qiziqtirish, balki ularni fizika, muhandislik fanlari, astronomiya va raqamli texnologiyalarni o'rganishga tizimli jalb etish imkonini beradi, — deydi "O'zbekkosmos" agentligining Kosmik



sohada fan va ta'limni strategik rivojlantirish bo'limi boshlig'i Humoyun Rahmonov. — Ushbu tanlov doirasida yaratilgan loyihalar kelgusida yo'qolib ketmasligi, aksincha, kelajak mutaxassislarini tayyorlash va rivojlantirishga xizmat qiladigan barqaror ta'lim vositalariga aylanishi bugun oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Muhimi, tanlovga taqdim etilgan 30 ga yaqin loyihalarining barchasida o'yin orqali fazoni tadqiq etishga qaratilgan bilimlar mujassam bo'lgan. Bu o'quvchilarni o'ziga jalb etish orqali ta'limga qiziqishini oshirishga ham xizmat qiladi. Space GameJam tadbiri kelgusida IT va geymdev mutaxassislari uchun amaliy maktab vazifasini o'tash barobarida, bolalar va o'smirlar orasida kosmosga bo'lgan qiziqishni o'stirishga xizmat qiladi. Tanlovdagi eng yaxshi loyihalar hakamlar hay'ati tomonidan tanlanib, loyiha mualliflari munosib taqdirlandi.

— Tanlovda Mirzo Ulug'bek nomli o'yin loyihamiz bilan ishtirok etdik, — deydi Cyber

Ladies jamoasi yetakchisi Ziyoda Narziqulova. — Barchaga ma'lum buyuk mutafakkir Mirzo Ulug'bek fazoni o'rganish borasida ulkan tadqiqotlarga asos solgan. Afsuski, bugungi kunda fazoni o'rganishga bo'lgan qiziqish yoshlar o'rtasida biroz susaygan. Buni ko'pchilik texnik taraqqiyot ta'sirida virtual o'yinlarga qiziqishning oqibati sifatida baholaydi. Aynan shu jihatni hisobga olgan holda biz ushbu loyihaga qo'l urdik. Bu bilan o'yin orqali fazoviy bilimlarga bo'lgan qiziqishni oshirishga o'z hissamizni qo'shishni maqsad qildik. O'yinimizda dastlab yulduzlar turkumi bo'yicha shartlarni bajarish talab etiladi va bu joyda ular haqida ma'lumot berib boriladi. O'yin o'ngida yulduzlar turkumi bo'yicha bilimni mustahkamlashga qaratilgan qisqa test savollari taqdim etiladi. Biz bu o'yinimizni kelgusida yanada mukammallashtirib, fazoviy bilimlar bilan boyitishni ko'zlaganmiz.

A. ISROILOV

TARAQQIYOTNING MUSTAHKAM POYDEVORI

O'zbekiston xalqining siyosiy-huquqiy tafakkuri, mustaqillik g'oyalari va demokratik tamoyillarning yorqin ifodasi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinganiga 33 yil bo'ldi.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan ushbu muhim hujjat mamlakatimizda davlat hokimiyati tizimini, jamiyat taraqqiyoti yo'nalishlarini va fuqarolarning asosiy huquq hamda erkinliklarini belgilab berdi. Bugungi kunda Konstitutsiya nafaqat tarixiy yodgorlik, balki, islohotlar poydevori, yangilanayotgan O'zbekistonning kelajak rejasini belgilovchi bosh omilga aylangan.

TARIXIY AHAMIYAT VA QABUL QILISH JARAYONI.

Mustaqillikning ilk yillarida mamlakat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri xalqaro demokratik mezonlarga mos keluvchi Konstitutsiyani yaratish edi. Loyiha ustida yurtimizning yetuk huquqshunoslari, olimlari, deputatlari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Qabul qilingan Konstitutsiya davlat mustaqilligini huquqiy jihatdan mustahkamlab, O'zbekistonning demokratik rivojlanish yo'lini belgilab berdi.

ASOSIY PRINSIPLAR — BARQAROR TARAQQIYOT KAFOLATI.

Konstitutsiyada davlat hokimiyatining

bo'linishi, qonun ustuvorligi, inson huquqlari va erkinliklarining oliy qadriyat sifatida e'tirof etilishi, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik kabi tamoyillar mustahkam o'rin olgan. Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai ekani Konstitutsiyamizning asosiy demokratik g'oyalardan biridir.

Shuningdek, hujjatda vijdon, so'z erkinligi, mulk daxlsizligi, ijtimoiy tenglik, oila va bolalar manfaatlarini himoya qilish kabi fundamental qadriyatlar ham o'z ifodasini topgan.

KONSTITUTSIYAGA KIRITILGAN ISLOHOTLAR VA YANGI BOSQICH

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar Konstitutsiyamizning zamon talablari asosida yangilanishini taqozo etdi. 2023-yilda o'tkazilgan referendum natijasida Konstitutsiyamizning yangi tahriri qabul qilindi. Unda inson qadri ustuvorligi, ijtimoiy davlat tamoyili, yoshlar va ayollar huquqlarini kengaytirish, nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash, mahalliy boshqaruv tizimini takomillashtirish, sud-huquq tizimi mustaqilligini kuchaytirish kabi qator muhim normalar mustahkamlandi.

Yangilangan Konstitutsiya O'zbekistonning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, inson manfaatlariga yo'naltirilgan jamiyatni barpo etishga xizmat qilmoqda.

KONSTITUTSIYA — HAR BIR FUQARONING YO'L KO'RSATKICHI

Bugungi kunda Konstitutsiya nafaqat davlat organlari faoliyatini tartibga soluvchi hujjat, balki, har bir fuqaro uchun himoya kafolati, erkinliklar majmuasi va huquqiy poydevordir. Fuqarolar huquqiy ongining yuksalishi, jamiyatda qonun ustuvorligi va adolat tamoyillarining mustahkam qaror topishi aynan Konstitutsiya amaliy hayotga to'liq tatbiq etilishiga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33 yilligi — bu tarixiy sana, mamlakatimizning mustaqil taraqqiyot yo'lidagi yutuqlari va kelajak rejalarini bilan chambarchas bog'liq bayramdir. Bugun Konstitutsiya jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarida islohotlar uchun poydevor, xalqimiz farovonligi va davlatimiz barqarorligini ta'minlovchi bosh omil sifatida xizmat qilmoqda.

Ushbu qutlug' sana Vatan ravnaqi yo'lida mas'uliyat, fidoyilik va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga chorlaydi.

**D. MURODQULOV,
B. JO'RAQULOV,
shahar adliya bo'limi xodimlari**

HUQUQ VA ERKINLIK TARTIBSIZLIK DEGANI EMAS

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada)

Amaliyotim davomida aynan tashqi ko'rinishi tufayli o'zini past baholay boshlagan o'quvchilar uchragan, asosan 7-8-sinf bolalar orasida. Shunday vaziyatlarda ularga individual va guruhiy suhbatlar, shuningdek o'ziga ishonchni oshirishga qaratilgan mashqlarni qo'llaganman. Masalan, "Maqsadlar pog'onasi" va "Men haqimda 10 ta ijobiy gap" mashqlari. Ish faoliyatim davomida uchragan og'ir psixologik holatlar — agressiv o'quvchilardagi keskin "emotsional portlashlar" desam bo'ladi. Bunday o'quvchilar tajovuzkor, serjahl va urushqoq holatga tushib qoladi. Ularga nisbatan avvalo individual suhbatlar, kuzatuv va mos psixologik texnikalar qo'llanadi. "Emotsiyalarni boshqarish" texnikasi va profilaktik mashqlar agressiyani kamaytirishda yaxshi samara bergan.

- "Soch uzunligi standarti" deganda nimani tushunish kerak: sanitariya normalari, xavfsizlik chorasi yoki shunchaki estetik talabmi? (Maktabning ichki nizomi qonundan ustun turadimi? Bunday talablar joriy etilishi uchun otanonalar yoki vasiylar bilan kelishuv bo'lishi shartmi?)

N.TURSUNOV:
- Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun zamonaviy yagona maktab formasini joriy etish tartibi to'g'risida "gi Nizomning 7-bandida o'g'il bola o'quvchilar uchun soch uzunligi talabi belgilangan bo'lib, umumta'lim maktablariga sochi 2-3 santimetrdan uzun bo'lgan va yorqin ranglarga bo'yagan holda kelishlariga yo'l qo'yilmasligi nazarda tutilgan.

Shunga asosan, soch uzunligi sanitariya normalari, xavfsizlik chorasi yoki shunchaki estetik talab emas, balki, qonunchilik hujjati bilan belgilangan talab hisoblanadi.

- O'smir "odatdagi qolipdan boshqacha bo'lishni xohlayman" desa, bu xavotir belgisimi? Shuningdek, forma va erkinlik orasidagi muvozanatni qanday tushuntirish mumkin?

N.UMAROVA:
- O'smining "odatdagi qolipdan boshqacha bo'lishni xohlayman" degani har doim ham xavf belgisi emas, aksincha normal rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Shu davrda o'smir o'zini izlash bilan shug'ullanadi, mustaqil fikrlash va individual bo'lishga intiladi. Bu uning shaxsiy rivojlanishi va ijodiy potentsialini namoyon qilishining tabiiy belgisi.

Forma va erkinlik muvozanatini tushuntirish uchun hayotiy misollar ishlatish samaraliroq deb o'ylayman. Masalan, "rassom ranglarni xohlagandek ishlatishi mumkin, lekin qog'oz yirtilmasligi, bo'yoq qurib qolmasligi uchun o'qoidalarga rioya qilishga majbur", degan tarzda. Shunda o'quvchiga erkinlik va qoidalar o'rtasidagi muvozanatni sodda yo'l bilan tushuntirish mumkin.

- O'zi bolani cheklash bilan tarbiyalash samaralimi yoki aksini?

N.UMAROVA:
-Psixologik nazariyalarga ko'ra, bolani cheklash bilan tarbiyalash samarali usul emas. Aksincha, bola bilan do'stona va hurmatga asoslangan munosabatda bo'lish natijani yaxshilaydi. Bolaga erkinlik berish uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Masalan, o'quvchi yangi tajribani sinab ko'rmoqchi bo'lsa, qattiq

taqiqlash o'rniga uni qo'llab-quvvatlab, o'z tajribasini xavfsiz sinab ko'rishi uchun sharoit yaratib berish kerak. Ehtimol u xato qilar, ammo o'rganadi. Agar ta'qiqlar ko'p bo'lsa, bola ko'pincha qarshi turish yoki beparvo bo'lish holatiga tushishi mumkin. Oqibatda o'z fikrini yashiradi, qoidalarini ataylab buzadi yoki mustaqil harakat qilishdan voz kechadi.

Ta'qiqlash bilan tarbiyalash va ishonch asosida tarbiyalash o'rtasidagi farq shundaki, ta'qiqlash bolani qo'rqitadi, o'z fikrini ifoda etishdan cheklaydi va mustaqillikni kamaytiradi. Ishonch asosida tarbiyalash esa bolaning erkin fikrlashini rag'batlantiradi, xatolaridan to'g'irlashga yordam beradi. Kelajakda u mustaqil hamda maqsadlariga erishadigan shaxs bo'lib yetishadi.

- Agar o'quvchi soch uzunligi yoki tashqi ko'rinishi sababli darsdan chetlashtirilsa, qaysi tashkilotga shikoyat qilish mumkin?

(Bu holatda direktor yoki o'qituvchiga qanday javobgarlik yuklanishi mumkin? Bunday vaziyatda bola psixologik tazyiqqa uchragan bo'lsa, bu "bullying" yoki "diskriminatsiya" sifatida baholanishi mumkinmi?)

N.TURSUNOV:
- Yuqoridagi Nizom bilan o'quvchilarning maktab formasini kiyish tartibiga va tashqi ko'rinish talablariga rioya qilmaslik uchun ko'riladigan choralarining aniq ro'yxati belgilangan bo'lib, bunda o'quvchini darsdan chetlatish chorasi ko'rilishi nazarda tutilmagan. Agarada o'quvchi darsdan chetlashtirilsa, "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonunga muvofiq o'z huquqlari, erkinliklari va

qonuniy manfaatlariga rioya etilishi masalalari yuzasidan tashkilot mansabdor shaxslariga (direktor) yoki bo'ssunuv tartibida yuqori turuvchi organga murojaat etilishi mumkin. Diskriminatsiya va bullying odatda takroriy, jismoniy yoki hissiy jihatdan kimgadir zarar etkazish uchun mo'ljallangan, ko'pincha muayyan guruhlariga qaratilgan (masalan, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi tufayli) xatti-harakat sifatida baholanadi. Bunday holatda talab etilayotgani mavjud nizom va ichki tartib-qoidalariga rioya qilish ekanini e'tiborga olib, diskriminatsiya va bullying, deb hisoblanmaydi.

- O'quvchilarning tashqi ko'rinish masalasi ziddiyatlar bo'lmasligi uchun qanday yondoshish kerak?

N.UMAROVA:
- Bu masalada eng avvalo hurmat va mehr bilan yondashish zarur. Har bir o'quvchining kiyimi, soch turmagi yoki aksessuari ko'pincha oillaviy odat va hududiy an'analarga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ularning ko'rinishini tanqid qilish yoki majburlash emas, balki tushunishga harakat qilish muhim.

Zamonaviy sharoitda ba'zi qarashlarni biroq o'zgartirgan ma'qul. Masalan, forma yoki tashqi ko'rinish masalasida bolaga buyruq berish o'rni, tanlov berib, lekin shu tanlovni biz istagan tartibga yaqinlashtirish mumkin. Masalan, bolaga, "Ha, sening hozirgi ko'rinishing ham yomon emas. Qara, manabuni ham sinab ko'r-chi, balki yoqib qolar?", deb aytilsa, bola o'zini bosim ostida emas, tanlov qilayotgan shaxs sifatida his qiladi. Bu usul psixologik jihatdan juda foydali. Chunki bola, "Bu qarorni o'zim qildim", deb his qilsa, nizolar, norozilik, qarshiliklar kamayadi yoki umuman bo'lmaydi.

- Nuriddin aka, Nodira opa foydali va mazmunli suhbatingiz uchun rahmat! Otabek UMIROV suhbatingizni baholashdi.

В преддверии восьмого декабря, Дня Конституции Республики Узбекистан, особое значение приобретает осмысление того, какое место Основной закон занимает в развитии современного общества и укреплении устойчивого социального порядка. В современной истории страны наступил качественно новый этап, получивший название Новый Узбекистан. На этом этапе отмечается не только обновление функционирующих институтов, но и глубокая трансформация всей системы отношений между государством и обществом.

ОСНОВНОЙ ЗАКОН — СТРАТЕГИЧЕСКИЙ МАЯК РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

В центре этих преобразований стоит Конституция страны, которая была обновлена по итогам всенародного референдума и стала современной политико-правовой моделью государственности. Отдельно подчеркну, что с годами, с расширением процесса масштабных реформ, роль Основного закона усиливается, поскольку именно он определяет развитие и разнообразие социальных обязательств государства и стандарты в условиях Нового Узбекистана.

Самое главное, как неоднократно подчеркнул Президент нашей страны Шавкат Мирзиёев, Конституция обеспечивает каждому человеку возможность достойной жизни независимо от его экономического происхождения, проживания в регионе или материального обеспечения. Данные положения органично согласовываются с политической платформой партии «Адолат», которая делает акцент на социальной справедливости и равенстве.

Обновленная Конституция отражает подход к построению справедливого и гуманного государства, в котором права человека являются высшей ценностью. Как депутат Законодательной палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан от фракции Социал-демократической партии «Адолат», считаю, это дает Основному закону особый социальный статус, который делает его не просто юридическим документом, но и морально-политическим ориентиром для всего общества.

Хочу отдельно подчеркнуть значение Конституции в рамках и условиях реализации Стратегии «Узбекистан-2030». В этих документах сформулированы задачи, направленные на обеспечение справедливости, повышение качества жизни населения, развитие экономики, модернизацию системы, расширение возможностей молодежи и женщин. Важно помнить, что поставленные задачи могут успешно решаться только при наличии устойчивой конституционной основы, поскольку Конституция задает рамки государственной политики, определяет права и обязанности граждан, а также регулирует взаимодействие.

Конституционное развитие страны занимает важное место в парламентской деятельности. Депутаты Законодательной палаты Олий Мажлиса Республики Узбекистан рассматривают Конституцию как инструмент обеспечения устойчивости государства, в котором каждый гражданин имеет возможность реализовать свой потенциал и сохранить поддержку государства. В частности, в рамках контрольно-аналитической деятельности нами подчеркивается приоритет прав человека, необходимость достижения независимости, усиления парламентского контроля и расширения прав общества, что полностью согласуется с конституционными нормами. Именно благодаря Конституции Олий Мажлис страны как законодательная ветвь власти стала более открытым, содержательным и ориентированным на интересы граждан государственным институтом. Подчеркну, что Конституция расширила механизмы парламентского контроля и установила условия повышения качества законотворчества. Для депутатов от политических партий, являющихся парламентской силой реализации предвыборных программ, это является принципиальным проявлением, поскольку повышается ответственность парламентариев перед обществом.

Следующий важный момент заключается в том, что обновленная Конституция укрепила основные принципы государственности, которые соответствуют требованиям современного правового и демократического общества. В частности, предусмотрено положение о социальном государстве, в котором гражданин находится в центре внимания государственной политики, усилены гарантии защиты частной собственности, прав предпринимателей, а также права на труд, образование

и поддержку экономики.

Конституция также выступает надежным гарантом эффективности института общественного контроля. В ней закреплены положения о поддержке негосударственных некоммерческих организаций, общественного контроля и открытости деятельности государственных органов. Эти положения стали важным направлением развития Нового Узбекистана, поскольку они предоставляют гражданам возможность непосредственно участвовать в жизни государства и влиять на принимаемые решения.

Фундаментом эффективного государства является основанное на партнерстве общество, где граждане, институты и государственные структуры взаимодействуют на основе доверия, ответственности и законности. Конституция создает правовые условия именно для такого взаимодействия, закрепляя непреложные нормы, которые определяют границы, содержание и дух общественного развития.

Более того, Конституция Республики Узбекистан выступает важнейшим инструментом укрепления национального единства и социальной солидарности. Основной закон провозглашает равенство всех граждан перед законом независимо от их национальной, этнической или религиозной принадлежности. Это положение напрямую отражает исторический дух толерантности, присущий нашему народу, который веками жил в пространстве культурного и конфессионального многообразия. Именно поэтому идеи межнационального и общественного согласия органично встроены в современные государственные институты.

В завершение отмечу, что гуманистический характер государственной политики, отраженный в Конституции, является ключевым ориентиром для нас, парламентариев. Основной закон Республики Узбекистан не только фиксирует правовые нормы, но и выражает стратегическую идею — гармоничное и справедливое общество возможно лишь тогда, когда каждый гражданин чувствует свою защищенность, вовлеченность и ответственность за общее будущее страны. Именно к этому стремится наша партия, рассматривая реализацию конституционных принципов как главное условие устойчивого развития государства.

В данном контексте значимым событием этого года стало принятие распоряжения Президента Республики Узбекистан № P-60 от 21 ноября 2025 года. В документе отражены задачи по всестороннему и содержательному проведению Дня Конституции. Подчеркнуто, что развитие культуры и уважение к закону способствуют появлению новых вариантов решения стратегических задач государства. Такая постановка вопроса отражает отношение нашей страны к Конституции как к живому документу, который должен быть не только принят, но и глубоко укоренен всеми членами общества. То есть данное распоряжение направлено на то, чтобы идеи Конституции, ее ценности и правила стали частью повседневной жизни.

Таким образом, Конституция Республики Узбекистан стала фундаментом обновленного государственного курса. Документ провозглашает правовые, политические, социальные и моральные ценности, которые определяют развитие страны на перспективу. Основной закон создает основу для успешного выполнения всех стратегических инициатив руководства Узбекистана, формирует новую правовую культуру и обеспечивает реальный механизм защиты прав человека. Это значение Конституции в жизни Нового Узбекистана чрезвычайно велико и служит дальнейшему развитию нашей Родины, ориентированной на мир, стабильность, прогресс и высокие стандарты проживания граждан.

**Н. РАШИДОВА,
член фракции СДП «Адолат»,
депутат Законодательной палаты
Олий Мажлиса Республики
Узбекистан**

DAVLAT MUSTAQILLIGI VA XALQ FAROVONLIGINING KAFOLATI

O'zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi mustaqillik arafasida ya'ni, 1990-yil 20-iyunda bo'lib o'tgan O'zbekiston SSR Oliy Kengashining ikkinchi sessiyasida boshlangan. Unda yangi konstitutsiyani ishlab chiqish e'lon qilindi va "Suverenitet Deklaratsiyasi" qabul qilindi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov boshlig'ida Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqish uchun 64 kishidan iborat komissiya tuzilib, tarkibga Oliy Kengash deputatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar vakillari, olimlar, malakali mutaxassislar kiritildi.

Konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishda inson huquqlari, demokratiya va qonunchilik sohalarida global miqyosda erishilgan yutuqlarni hisobga olgan holda konstitutsiyaviy taraqqiyot amaliyoti chuqur o'rganildi. 1992-yil 26-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasi umumxalq muhokamasiga qo'yildi. Ikki oy davom etgan muhokama jarayonida loyihaga bir qator tuzatishlar kiritildi. Jamoatchilik muhokamasi davomida 6 mingdan ortiq takliflar bildirildi va komissiya tomonidan ko'rib chiqildi.

Umuman, deputatlar loyiha 80 ta o'zgartirish, qo'shimcha va aniqliklar kiritdilar. Shundan so'ng 1992-yil 8-dekabrda Mustaqil O'zbekistonning Konstitutsiyasi qabul qilindi. Shu kuni Prezident tomonidan Konstitutsiyani qabul qilish, shu kuni milliy bayram sifatida nishonlash, Konstitutsiyani qabul qilish tartibi haqidagi bir necha qonunlar kuchga kirdi. Ta'kidlash joizki, mustaqil O'zbekistonning ilk Konstitutsiyasi BMT, bir qator nufuzli xalqaro tashkilotlar, AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya hamda

boshqa mamlakatlardan kelgan huquqshunolar, olimlar tomonidan yuqori baholandi.

Konstitutsiyaning 4-moddasida "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlarini va an'analarini hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi", — deya alohida ta'kidlangan. Shu o'rinda chor Rossiyasining bosqinchi generali Skobelevning: "Millatni yo'q qilish uchun uni tig'dan o'tkazmay tilini, dinini, urf-odatini yo'q qilsang millat o'zi yo'q bo'lib ketadi", — degan gaplari yodga tushadi. Haqiqatan ham bosqinchi general aytganidek, avval chor Rossiyasi, so'ngra Sovet Ittifoqi, deb atalmish bosqinchilar tomonidan amalga oshirilgan siyosat

tufayli tilimizni ham, ma'naviy ildizimizni ham yo'qotish darajasiga kelib qolgan edik. Mustaqillik tufayli xalqimizning o'zligi tiklandi. O'zbekiston jahonda o'z o'rni, o'z so'ziga ega bo'ldi.

Jamiyat rivoji, zamona zayli Konstitutsiyamizga ba'zi o'zgartirishlar, qo'shinchalar kiritishni taqozo etadi. Shu boisdan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berishi orqali yangi tahrirda qabul qilindi. Yangilangan Bosh qomusimiz bugunimiz va kelajagimiz uchun muhim bo'lgan huquqiy asoslar bilan boyitildi. Endi Vatanimiz Yangi O'zbekiston nomi ostida mustaqillik, ozodlik bayrog'ini baland ko'targan holda dunyoga tanilmoqda.

**T. MAMATOV,
Serjantlar tayyorlash oliy maktabining katta o'qituvchisi**

Конституция коғони асоси кишвар буда, ҳуҷҷати дорон қувваи олии ҳуқуқиест, ки сохтори давлат ва қома, ҳуқуқ ва ўҳдадорихон инсонро инъикос менамоад.

SARQONUNI MO BAROI BALAND BARDOHTANI QADRI INSON XIZMAT MEKUNAD

Konstitutsiya garavi olini huquqini nek'axvolini xalq va manfiatxon inson buda, yake az vositaxon asosini tashakkuili ha'eti cham'iyat va tashkili davlat mebohad.

Konstitutsiya Cумхурии Ўзбекистон, ки 8-уми декабри соли 1992 дар Шўрои Олии Ҷумҳурии Ўзбекистон қабул карда буд, пурра ба таҷриба, стандарт ва талаботи аз ҳама пешқадами хоричӣ ҷавоб медиҳад. Аммо, бо назардошти фарорасии вақти он, ки баъзе меъёрҳо шоро бояд тақмил дода, ба талаботи имрӯза мутобиқ созем, мардуми мо дар раёнипуросии 30-юми апрели соли 2023 тахрири нави Конституцияи Ҷумҳурии Ўзбекистонро қабул кард.

Татбиқи мунтазами меъёрҳои нав, замонавӣ ва муҳиме, ки ба Сарқонун аз нав тахриршуда ворид карда шудаанд, даври нави хифзи ҳуқуқ, озодӣ ва манфиатҳои қонунии инсонро оғоз мекунад.

Дар меъёрҳои нави Конституцияи мо ба таракқиёти устувори инсон, чам'ият ва давлат нигаронида шудани диққати асосӣ нишон дод, ки Ўзбекистони Нав ба ўҳдадорихон байналхалқии худ дар ин соҳаҳо содик аст.

Дар боби 8-уми Конституция, ки ҳуқуқҳои сиёсиро муайян мекунад, дохил карда шудани меъёри нави онди он, ки шаҳрвандон дар дохил шудан ба хизмати давлатии Ҷумҳурии Ўзбекистон ҳуқуқҳои баробар доранд, маҳдудиятҳои марбут ба гузаронидани хизмати давлатӣ бо қонун муайян карда мешаванд, низ ҳамчун қафолати ҳимояи ҳуқуқҳои инсон хидмат мекунад.

Тибқи моддаи 47-и Конституция, ки ҳуқуқҳои иқтисодӣ, иҷтимоӣ, фарҳангӣ ва экологиро муайян мекунад, ҳар кас ҳуқуқи соҳиби манзил шудан дорад, ҳеч кас бидуни қарори суд ва ғайриқонунӣ аз манзил маҳрум карда намешавад, ба соҳибмӯлки аз манзил маҳрум кардашуда ба миқдори арзиши манзил ва товони зарари додаш, ба ӯ пешақӣ ва ба андозаи баробар дар ҳолатҳо ва тартиби пешбиникардани қонун пардохта мешавад.

Ин меъёр ба ғайр аз қафолати хифзи молиякити хусусӣ дар дириран Конституция, меъёри дар моддаи 31-уми лоиҳаи Сарқонун зикрқардидаро онди он, ки «Ҳар кас ба дахлнопазирии ҳонаву қойи ҳуқуқ дорад», мустаҳкам ва пурра намудааст.

Дигар нуктаи қолиби диққати Конституцияи нави дар моддаи 67-ум муайян карда шудааст. Тибқи он, давлат фазои мусонди сармоягузорӣ ва соҳибқори рофароҳа меорад. Соҳибқорон ҳуқуқ доранд тибқи қонун ҳама гуна фаёлиятро анҷом диҳанд ва самтҳои фаёлияти худро мустақилона интиҳоб кунанд. Дар худуди Ҷумҳурии Ўзбекистон яғонагии фазои иқтисодӣ, ҳаракати озоди амвол, хизматрасониҳо, захираҳои меҳнатӣ ва молиявӣ қафолат дода мешавад.

Ин қоидаҳо меъёрҳои конституционӣ буда, ба таъмини нек'ахволии мардум ва суботи иқтисодии кишвар, таъмини соҳибқорон ва хифзи онҳо, баланд бардоштани масъулияти мақомоти давлатӣ дар ин замина хизмат мекунад.

Бояд таъкид намуд, Конституцияи Ҷумҳурии Ўзбекистон Сарқонунест, ки ҳимояи ҳуқуқ ва озодии инсонро қафолат медиҳад, масъулияти давлатро дар назди халқ меафзояд, қоидаҳои ҳуқуқи байналхалқии умумиёзтирофшударо дар қонунгузории миллимон ҳамчун қоидаи конституциявӣ татбиқ ва аз ин рӯ, барои таракқиёти кишвар ва нек'ахволии халқамон хидмат мекунад.

**Меҳрангиз БОЛТАЕВА,
устоди факултети филологияи англисӣ ва тарҷумашиносии Донишқадани давлатии забонҳои хоричии Самарқанд**

Bandlik IMKONIYATLAR ESHIGI

Kasbiy ko'nikmalar markazida "Bo'sh ish o'rinlari" mehnat yarmarkasi o'tkazildi.

Yarmarkada shaharga tutash Pastdarg'om va Samarqand tumanlarida joylashgan turli mehnat jamoalari ham qatnashdilar. Jami 652 nafar kasb-hunar egallash, til o'rganish ishtiyoqida bo'lgan fuqarolar mehnat jamoalari vakillariga o'z xohish va istaklarini bildirdilar. Taklif etilgan 5234 ta ish o'rnini band qilish uchun ishlab istagida bo'lgan ishlar qatnashdilar. 42 ta korxonada tomonidan taklif etilgan bo'sh ish o'rinlariga 98 nafar fuqaro ishga joylashdi.

Xususan, "Daka Inteks" MCHJga 51 nafar, "Renessans Dizayn" MCHJga 31 nafar, boshqa korxonalarda 16 nafar fuqaroning bandligi ta'minlandi. Bundan tashqari, 251 nafar yoshlar bilan ishga joylashish bo'yicha shartnomalar imzolandi, 56 nafar yoshlar xorijiy til kurslariga jalb qilindi, mahallalarda joylashgan bo'sh binolarda 232 ta yangi ish o'rnini yaratildi.

— Anchadan buyon koreys tilini o'rganib, Koreya respublikasiga ishlash uchun borish niyatida yurgan edim, — deydi Shukrona mahallasida yashovchi Ibrohim Rasulov. — Bugun shu niyatim sari ilk qadam tashlab, til markaziga o'qish uchun yo'llanma oldim.

O'z muxbirimiz

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 35-moddasida "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi", deya qayd etilganiga qaramay turli yolg'on chaqiriqlar ta'siriga tushib qolayotgan fuqarolarning uchrayotgani kishini tashvishlantiradi.

ILMSIZLIK OQIBATI...

Transport va turizm obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash departamenti TQB TQKG hamda viloyat Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi tezkor qidiruv bo'limi xodimlari tomonidan o'tkazilgan tadbir davomida ham aynan shunday fuqarolardan biri ushlendi.

Tezkor tadbir davomida 1995-yil Samarqand tumanida tug'ilgan fuqaro M.K.ga tegishli "Samsung A12" rusumli telefon apparati xolislar ishtirokida ko'zdan kechirilganda uning ijtimoiy tarmoqdagi shaxsiy profilida O'zbekiston Respublikasida faoliyati ta'qiqlangan Shayx Sodiq Samarqandiyning ta'qiqlangan diniy mazmundagi video va audiolari saqlanganligi va u ushbu ma'ruzalarni muntazam tinglab yurganligi aniqlanib, tegishli tartibda hujjatlashtirildi.

Fuqaroning mamlakatda ta'qiqlangan diniy mazmundagi materiallar bilan bog'liq qilmishi O'zbekiston Respublikasi MJTKning 1842-moddasida ko'rsatilgan huquqbuzarlik ekanligi qayd etildi. Ish yuzasidan to'plangan hujjatlar tegishli tartibda jinoyat ishlari bo'yicha Samarqand shahar sudiga yuborildi.

Ilimsizlik oqibati ana shunday muammolarga sababchi bo'lishi yana bir fuqaro taqdirida namoyon bo'lmoqda. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, qonun e'tiqod erkinligi ta'minlangan. Diniy ilm olish uchun ham, e'tiqod uchun yetarli sharoitlar yaratilgan. Faqatgina belgilangan tartib-qoidalarga, aniq, xolis, qonuniy me'yorlarga mos manbalardan foydalanish zarur. Aksincha bo'lsa, u zarar va tashvishdan iborat bo'ladi.

**A. YUSUPOV,
M. TURSUNOV,
Samarqand viloyati Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi xodimlari**

Konstitutsiya – huquqiy davlatning bosh asosi. Huquqiy davlat degani barcha uchun qonun ustovor bo'lgan jamiyat demakdir. O'z navbatida, qonun ustuvorligi Konstitutsiyadan boshlanadi. Har qanday davlatning qudrati, barqarorligi va xalq farovonligi, eng avvalo, uning Konstitutsiyasida belgilangan tamoyillarga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – bu nafaqat davlat tuzilmasini belgilab beruvchi hujjat, balki har bir fuqaroning erkin, osoyishta va adolatli hayot kechirishini ta'minlaydigan huquqiy asosdir.

ISLOHOTLAR MAYDONI

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning eng muhim o'zgarishlaridan biri — inson sha'ni va huquqlari davlat siyosatining markaziga qo'yilganidir. Bunda xalq manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy adolatni qaror toptirish, tenglik va huquqiy himoyani ta'minlash davlatning eng muhim vazifasi sifatida belgilangan.

Jumladan, "Har bir insonning qadr-qimmatini daxlsiz", degan norma mustahkamlandi. "Davlat inson huquq va erkinliklarini ta'minlaydi", degan band konstitutsiyaviy majburiyat sifatida qayd etildi. Ayollar, bolalar, nogironlar va keksalar manfaatlarini himoya qilishga doir alohida modda kiritildi. Bu o'zgarishlar xalqimizning ijtimoiy adolat, insonparvarlik va bag'rikenglik qadriyatlariga tayangan holda qabul qilingan bo'lib, Konstitutsiyaning zamonaviy va demokratik ruhini yanada mustahkamladi.

O'zbekiston so'nggi yillarda sud-huquq tizimini isloh qilish, adolatli sudlovni ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha katta qadamlar tashladi. Xususan, inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz, Ombudsman instituti, Bola huquqlari bo'yicha vakil kabi yangi tuzilmalar aynan Konstitutsiyada mustahkamlangan

huquqlarni amaliyotda ro'yobga chiqarishga xizmat qilmoqda.

Konstitutsiya — xalq irodasi ifodasi. 2023-yilgi konstitutsiyaviy islohotlar tariximizda yangi bosqichni boshlab berdi. Xalqimiz bevosita ishtirok etgan referendum orqali o'z irodasini bildirdi. Bu jarayon O'zbekistonda xalq hokimiyati g'oyasi nafaqat shior, balki amaliy haqiqatga aylanganini isbotladi. Konstitutsiya va inson huquqlari — Yangi O'zbekistonning adolatli jamiyat sari yo'lini belgilab beruvchi bosh yo'l

xaritasidir. U davlatning kuch-qudratini emas, balki, xalqning qadr-qimmatini, inson manfaatlarini oliy qadriyat sifatida belgilaydi. Shuning uchun ham biz, har bir o'zbekistonlik o'z Konstitutsiyamizni chuqur bilishimiz, unga hurmat bilan yondashishimiz, unda belgilangan huquq va erkinliklarni qadrlashimiz zarur. Chunki, Konstitutsiya – bu bizning or-nomusimiz, huquqiy himoyamiz va milliy g'ururimizdir.

**Navbahor ABDUKARIMOVA,
TDIU Xorijiy tillar ta'limi kafedrasini o'qituvchisi**



AYBSIZLIK PREZUMPSIYASI SHUBHA-GUMONDAN SAQLANISH ZARURATI

Demokratik jamiyatning asosiy belgisi unda yashayotgan har bir fuqaroning huquqi, erkinligi va sha'ni davlat tomonidan qat'iy himoya qilinibdir. O'zbekiston Konstitutsiyasining 28-moddasi aynan shu g'oyani aks ettirib, jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini ta'minlaydigan eng muhim kafolatlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Bu modda shaxsning aybsiz, deb hisoblanishidan boshlanadi. Jumladan "Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz, deb hisoblanadi..." Bu prinsip jamiyatdagi har bir odamni nohaqlikdan himoya qiluvchi qalqon vazifasini bajaradi.

Demak, aybsizlik prezumpsiyasining eng muhim jihatlardan biri — dalil, isboti ayblovchi tomonga yuklatilganidir.

Bu shuni anglatadiki, biror shaxsni jazolash uchun bitta gumon yoki bitta shubhali dalil yetarli emas. Barcha shubhalar ayblanuvchi foydasiga talqin qilinadi, ishonchli, mustahkam va qonunda belgilangan tartibda to'plangan dalillargina sud qarorining asosini tashkil etishi mumkin.

Qayd qilingan modda shuningdek, shaxsning o'zini himoya qilish huquqlarini ham belgilab beradi. Ayblanuvchi yoki gumonlanuvchi sukut saqlash huquqiga ega bo'lib, bu huquqidan foydalanishi uchun undan izoh talab qilinmaydi. U o'ziga yoki o'zining yaqiniga qarshi guvohlik

berishga majburlanmaydi — bu tamoyil dunyoning eng rivojlangan huquqiy davlatlarida qabul qilingan asosiy demokratik prinsipdir.

Inson aybini tan olsa ham, agar bu tan olishni tasdiqlovchi mustahkam dalillar bo'lmasa, bunday tan olish jazolash uchun yetarli emas. Bu yondashuvning zamirida inson sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, tergov jarayonida har qanday zo'rvonlikning oldini olish maqsadi yotadi.

Aybsizlik prezumpsiyasining qo'llanilishi faqat tergov yoki sud jarayoniga doir emas. Bu tamoyil jamiyatning har bir bo'g'inida — OAVda, ijtimoiy tarmoqlarda, jamoatchilik fikrida, davlat idoralari ishida ham hurmat qilinishi zarur. Chunki, sud hukmi chiqmaguncha hech kimni jinoyatchi sifatida

ko'rsatish yoki uning sha'nini yerga urish insoniyatda demokratik jamiyat tamoyillariga mos kelmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Konstitutsiyaning 28-moddasi faqat huquqiy norma emas — u O'zbekistonda demokratik qadriyatlarining mustahkamlanishi, inson sha'ni va qadr-qimmatining daxlsizligi, sud hokimiyatining adolatli faoliyat yuritishiga ishonchni ta'minlovchi asosiy kafolatlardan biridir. Aybsizlik prezumpsiyasi jamiyatni adolat va halollik sari yetaklaydigan, insonning eng oliy boyligi sifatida uning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qiladigan tamoyildir.

**Shahboz MURTOZAYEV,
O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi talabasi**

OIV — BAXTSIZLIK HUKMI EMAS...

Dastlab aniqlangan yillarda OIV butun dunyo bo'ylab qo'rquv uyg'otgan, o'lim bilan barobar, deb qaralgan. Bugunchi, tibbiyot rivojlangan bir davrda, OIV bilan yashayotgan insonlar ham sog'lom farzand ko'rishi, uzoq umr kechirishi, ishlashi, o'qishi va yillar davomida oilasi bilan baxtli yashashi mumkinmi? Odamzod oldini olish mumkin bo'lgan xavfga qarshi yetarlicha hushyorlik qilyaptimi?

Yer yuzida istiqomat qilayotgan o'n millionga yaqin insonni o'z iskanjasiga olgan, ularga har kuni o'lim, og'riq va uqubatlarni eslatib turgan OITS bir kunlik kurash bilan yengadigan kasallik emas. Insoniyat bu xastalik bilan deyarli yarim asr davomida kurashib kelmoqda. Kasallikka to'liq davo hali topilmagan bo'lsa-da, bemor ahvolini yengillashtirish va hayot sifatini yaxshilash borasida katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Ayniqsa, 2010-yillardan boshlab antiretrovirus terapiya (ARV) samarasi yaqqol namoyon bo'la boshladi: immun tizimi zaiflashgan bemorlarda ham hayot darajasi oshdi, virusni boshqalarga yuqtirish ehtimoli kamaydi. Bu esa OIV bilan yashash hukm emasligi, o'z vaqtida tashxis qo'yilsa, inson to'laqonli hayot kechira olishi mumkinligini isbotlab berdi.

OIVning eng xavfli jihati — u dastlabki bosqichda deyarli hech qanday alomat bermasligidir. Inson virusni yuqtirib olgan paytdan boshlab 10 yilgacha o'zini sog'lom his qilishi mumkin. Ammo bu orada virus sog'lom hujayralarni asta-sekin yemirib boradi, immun tizimi himoya qilish

qobiliyatini yo'qota boshlaydi. Oqibatda, OITS — orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi rivojlanadi. Bu birgina organni emas, butun organizmni zararlovchi, insonni eng oddiy kasalliklar oldida ham oqiblatiradigan jarayondir. Shuning uchun ham OIV haqida gap ketganda asosiy urg'u — erta tashxis, muntazam tekshiruv, davolanishni kechiktirmaslikdir.

O'zbekistonda bo'yicha OIV infeksiyasi bilan yashovchilar har 100 ming aholiga nisbatan 136,4 nafarni tashkil qilayotgani, ulardan 55 foizi erkaklar, 45 foizi ayollar ekani statistik fakt. Bu raqamlar ortida esa tirik hayotlar turibdi. OIV haqida og'zaki mish-mishlar, qo'rquvlar va noto'g'ri tasavvurlar ko'p bo'lgani sababli aksar kishilar tekshiruvdan qochadi. Aslida esa vaqtida aniqlangan infeksiya — davolashning yarmi demakdir. ARV terapiyasini muntazam qabul qilgan bemorning hayoti sog'lom inson hayotidan deyarli farq qilmaydi. Qondagi virus yuklamasi past darajaga tushadi, immun tizimi tiklanadi, boshqalarga yuqish xavfi deyarli yo'qoladi.

O'zbekistonda barcha homilador ayollar homiladorlikning ilk haftalaridan boshlab OIVga qarshi ikki marotaba tekshiruvdan o'tadi. Agar infeksiya aniqlansa, tug'ruqqacha va tug'ruq jarayonida maxsus tadbirlar amalga oshiriladi. Dunyo amaliyotida bo'lgani kabi, chaqaloq 1 oy davomida maxsus profilaktik dori oladi va 18 oy kuzatuvda bo'ladi. 2019-yilda vertikal yuqish ya'ni onadan bolaga o'tish darajasi O'zbekistonda atigi 1,3 foizni tashkil etgan. Bu esa tizimning naqadar samaradorligini yaqqol isbotlaydi.

OIVga qarshi kurashda zamonaviy yondashuv ham juda muhim. Masalan, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, viloyat OITS markazida yagona elektron tizim ishga tushirilishi, uning boshqa davlat idoralari ma'lumot bazalari bilan integratsiya qilinishi bemorlar bilan ishlashni yengillashtirdi, monitoring sifatini oshirdi, noaniqliklarni kamaytirdi. Buning natijasida shifokor bemor bilan ko'proq vaqt suhbatlashish, holatini kuzatish va individual yondashuvni amalga oshirish imkoniga ega bo'ldi.



2025-yilning o'tgan 10 oyi davomida viloyatda 490 mingdan ortiq skrining tekshiruvlari o'tkazilgani, ular ichida 34 mingdan ortig'ini bolalar tashkil qilgani — profilaktikaning keng qamrovligidan dalolat. Bugungi kunda OIV infeksiyasini erta aniqlash uchun zamonaviy laboratoriyalar, test tizimlari va uskunalar yetarli.

Jahon hamjamiyati 2030-yilgacha OIV epidemiyasiga barham berishni maqsad qilgan. BMT ilgari surgan "95-95-95" strategiyasi ham shunga qaratilgan: OIV bilan yashovchilarning 95 foizi o'z statusini bilishi, 95 foizi terapiya bilan qamrab olinishi, 95 foizida virus xavfsiz darajaga tushishi. Bu ko'rsatkichlarga erishish — real maqsad, ammo, u har bir insonning hushyorligi, mas'uliyati, o'z sog'lig'iga befarq bo'lmasligi bilan chambarchas bog'liq.

Har kim o'zida shubhali holat sezish, sezmasligidan qat'iy nazar yilda bir marta tekshiruvdan o'tishi kerak. Bu ham majburiyat, ham huquq. OIVga test topshirish anonim va maxfiy tarzda amalga oshiriladi. Buning uchun Samarqand shahridagi OITS markaziga yoki hududingizdagi poliklinikaga murojaat qilish kifoya. Hech bir shifokor sizning natijangizni oshkor qilishga haqli emas — bu qonun bilan himoyalangan.

OIVning eng yaqin — beparvulik bo'lsa, eng katta dushmani — vaqtida test topshirishdir. Biz bugun hushyor bo'lsak, ertamiz yanada sog'lom, yanada xavfsiz bo'ladi. Inson hayotida eng qadri ne'mat — sog'liq. Uni asrash o'z qo'limizda.

**F. SATTOROVA,
D. AHMEDOVA,
viloyat OITSga qarshi kurash
markazi epidemiologlari**

SARATON...

MALAKALI TIBBIY XIZMAT

Asosiy qonunimizning 48-moddasida "Har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega ..." ekanligi qayd qilingan.

Shuningdek, ushbu moddada "Davlat sog'liqni saqlash tizimini, ... rivojlantirish ... choralarini ko'radi", deb belgilangan.

Mazkur tamoyillarga ko'ra, onkologiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, ushbu sohada fuqarolarimiz huquqlari nechog'lik kafolanayotgani barchani qiziqtirishi tabiiy. Mavzu yuzasidan Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Samarqand filial direktori Firdavs O'LMASOV bilan suhbatlashdik.

— **Avvalo, tibbiyotda saraton, xalq orasida esa "rak", deb nomlangan kasallik kelib chiqish sabablari va undan himoyalalanish haqida ma'lumot bersangiz.**

— Avvalo, kasallikni kelitirib chiqaruvchi har xil omillar bor. Hayot tarzini noto'g'ri yo'lga qo'yilganligi, ovqatlanish tartibining buzilishi, gigiyenaga rioya qilmash shular jumlasidan. Kasallik tarixiga qaralsa 2000-yillarga qadar saraton 70–80 yoshdan oshganlarda ko'proq uchragan. Bu esa organizmning qarishi bilan bog'liq bo'lib, 80 yoshdan oshganlarning 90 foizida u yoki bu turdagi onkologik kasallik aniqlangan, ya'ni qarilik kasasalligi bo'lgan. Tahlillar natijasi 2000-yildan keyin buning aksini ko'rsatmoqda. Masalan, jigar yoki qizilo'ngach saratoni keskin yosharib ketgan. Nega? Yoshlarimiz orasida "fasfood" yeyish, tamaki va alkogol mahsulotlari, gazlangan salqin ichimliklarning muttasil iste'mol qilish holati ko'paygani uchun. Yana bir misol, ayollarda uchraydigan sut bezi saratoni ham xuddi shunday ko'paygan va yoshargan. Tug'ruqdan so'ng onalar farzandini ona suti bilan boqmayapti. Buning natijasida nafaqat onada sut bezi saratoni, balki, bolada ham turli vitaminlarning yetishmasligidan qator kasalliklar kelib chiqish holatlari kuzatiladi.

Vatandoshlarimizning ongiga "qachon kasal bo'lsam shifokorga boraman", degan qarash singib qolgan. Tibbiyotda "scrining" atamasi bor. U ma'lum bir kasallikni erta bosqichda, alomatlar hali sezilmagan turib aniqlash uchun o'tkaziladigan tekshiruvlar majmui, degan ma'noni bildiradi. Har bir inson yiliga hech bo'lmaganda bir marta tekshiruvdan o'tib turishi kerak. Shifokor unga turmush tarzini tog'ri yo'lga qo'yishni, qaysi ovqatni yeyish yoki yemaslikni, qanday sport bilan shug'ullanish kerakligining ilmiy jihatdan asoslab tushuncha beradi. Shunda,

shifokor ham o'z vazifasini, fuqarolar ham Vatan oldidagi farzandlik burchini bajargan bo'ladi. Zero, biz Vatanga sog'lom bo'lsak ko'proq xizmat qilamiz.

— **Tekshiruvlar uchun yetarli sharoitlar bormi, ayniqsa chekka hududlarda?**

— Bugungi kunda har bir tuman markaziy shifoxonasida "onkonazorat" xonalari tashkil qilingan bo'lib, u onkolog shifokor hamda birlamchi tekshiruv uchun zarur bo'lgan jihozlari bilan ta'minlangan. Masalan, oshqozon kasalliklarini tekshirish uchun gastrooskop, ichak kasalliklarini aniqlash uchun kolonoskop, ultratovush (UZI) apparati, ko'krak qafasini tekshirish uchun rentgen apparatlari mavjud. Bu birlamchi tekshiruvni sifatli amalga oshirish uchun yetarli. Hozirgi kunda ayollar orasida sut bezi va bachadon bo'yni saratoni birinchi va ikkinchi o'rinlarni egallab turgan bo'lsa, erkaklar orasida oshqozon, qizilo'ngach va prostata beziga oid kasalliklar keng tarqalgan. Umuman olganda, ushbu xastaliklar barcha onkologik kasalliklarning qariyb 50 foizini tashkil etadi. Besh-olti yil avval ham shifokorlar erta aniqlash bo'yicha faoliyat yuritgan, ammo imkoniyatlar cheklangan edi. Hozir esa har bir mammografik suratni uch nafar mutaxassis ko'rib chiqadi: birlamchi tizim shifokori, viloyat markazi mutaxassisi va respublika darajasidagi mutaxassisi. Bu esa xatolik ehtimolini keskin kamaytiradi.

Yana bir muhim ish — har bir viloyatga bitta mobil mammografiya olib berilganidir. U har kuni tumanlarda aholi orasida tekshiruvlar o'tkazib, bir kunda 65–70 nafar insonni ko'rikdan o'tkazish imkonini yaratadi. Yil davomida tumanlar bo'ylab belgilangan reja asosida ushbu mobil mammografiya orqali kasallikni erta aniqlash bo'yicha tekshiruvlar amalga oshiriladi. Kasallik qancha erta bosqichida aniqlansa bemorni davolash imkoniyati shuncha oshib boraveradi.

— **Erta aniqlash juda muhim ekanligini ta'kidlagiz. Kasallikning nechta bosqichi mavjud?**

— Saraton kasalligi tibbiyotda to'rtta bosqichga bo'lib o'rganiladi. Lekin xavfli darajasi o'smaning joylashgan joyidan kelib chiqib belgilanadi. Tajribamdan va standartdan kelib chiqib ayta olamanki, kasallik birinchi, ikkinchi bosqichida aniqlansa bemor to'la sog'ayib ketadi.

Shu o'rinda birgina misol, shahar 2-son shifoxonasida 1 yil davomida 12 mingta ayol tekshiruvdan o'tkazilib 450 dan oshig'ida u yoki bu turi gumon qilinib bizga yuborilgan. 350 nafarida dastlabki bosqichda aniqlangan, ya'ni ular to'la sog'ayib ketadi. Uchinchi, to'rtinchi bosqichda bemor muolajaga dosh berishi qiyinlashadi. Uning umri amalga oshirilgan davolash jarayoni tufayli uzayishi mumkin, biroq, hujayralarning hayotiy faoliyati butkul tiklanmaydi. Aholimiz orasida noo'rin vahima bor "saratonga test topshirsam, menda kasallik bo'lmasa ham dori yozib beradi. Pul qiladi...", degan. Agar kasallik alomatlar mavjud bo'lmasa dori yozib berishning imkoni yo'q. Chunki har bir tekshiruv natijasi bazada ko'rinadi. Dori vositalari shundan kelib chiqib ajratiladi. Bu kasallik bemor hisobidan emas, davlat hisobidan davolanadi. Yana bir muhim jihat haqida aytishim kerak. Tekshiruv natijasi yomon bo'lsa ya'ni o'simta bor, deb tashxis qo'yilsa, borib xususiy klinikalarda qaytadan tekshiruvdan o'tib ko'rishadi ularning javobi biznikidan farq qilsa ishonishadi. Vaholanki, bu kasallikka butun dunyoda davlat ahamiyati darajasida qaraladi.

— **Albatta, moddiy texnik baza muhim. Shu o'rinda Samarqand filiali imkoniyatlari haqida ham to'xtalsangiz.**

— Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Samarqand filial uchun 2024-yilning o'zida olti yarim million dollarga asbob-uskuna xarid qilindi. Bu dunyo standart darajasida oladigan bo'lsak moddiy-texnik baza 95 foiz ta'minlangani va yangilanganini ko'rsatadi. Shifokorlarning tajribasi hamda ilmiy salohiyatini oshirish borasida tibbiyot rivojlangan mamlakatlar jumladan, Fransiya bilan hamkorlikda ishlanmoqda. Bizda olingan tahlil natijalari ularga yuboriladi va to'planib tadqiqotlar o'tkaziladi. Davolash masalasiga kelganda esa bu jarayon katta mablag talab qilishini ochiq aytish zarur. Shuning uchun ham saraton kasalligi aniqlangan bemor to'liq davlat hisobidan dori vositalari va malakali tibbiy xizmat bilan ta'minlanadi. 2024-yilda birgina "ximya terapiya" uchun markazimizda 29 milliard so'm miqdorida xarajat qilindi. Yana bir bor ta'kidlayman kasallikni erta bosqichida aniqlasak, ham vaqtdan, ham naqtdan yutamiz. Buning uchun xalqimiz va tibbiyot tizimi do'st bo'lishi kerak!

— **Foydali suhbatangiz uchun rahmat!
O. ZIYODULLAYEV suhbatlashdi.**

Bugungi globallashuv davrida xalqaro muloqot, madaniy almashinuv va ta'lim integratsiyasi yurtimiz uchun muhim strategik yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, yirik xalqaro tadbir — YUNESKO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining yurtimizda o'tkazilishi O'zbekistonning xalqaro nufuzini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi deyish mumkin.

XALQARO ANJUMANLARDA VOLONTYORLLIK: MAS'ULIYAT VA SHARAF

Quvonarli jihati, mazkur nufuzli tadbirda Samarqand davlat chet tillar instituti professor-o'qituvchi va talabalaridan tashkil topgan gid-tarjimon volontyorlar jamoasi faol ishtirok etib, o'z kasbiy mahorati va fidoyiliklari bilan xalqaro mehmonlar e'tirofiga sazovor bo'lishdi.

Mazkur anjuman Samarqand davlat chet tillar instituti volontyorlari mehmonlarni kutib olish, tarjima qilish, gidlik va axborot-ta'minoti bo'yicha faoliyat yuritdilar.

Albatta, mazkur jarayonlar SamDChTI volontyorlariga katta mas'uliyat va faxr bag'ishladi. Ular O'zbekistonning mehmondo'stligini, madaniyatini va zamonaviy ta'lim salohiyatini amalda namoyon etdilar desak mubolag'a qilmaymiz.

Shu bilan birga, joriy yilning 26-noyabdan 4-dekabrqa qadar davom etgan "Yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yovvoyi hayvon va o'simlik turlari bilan xalqaro savdoni tartibga solish to'g'risida"gi konvensiya tomonlar konferensiyasining 20-sessiyasi tadbirlarida ham institut volontyorlari faol ishtirok etib, anjumaning yuqori saviyada o'tishiga munosib hissa qo'shishdi.

Talaba-yoshlarning mana shunday nufuzli anjumanlardagi faol ishtiroki ularni o'z kasbini sevish, Vatanga xizmat qilish va xalqaro maydonda O'zbekiston nomini sharaf bilan tanitish yo'lida dadil qadamlar bilan ulug' marralar sari olg'a borishga undaydi.

**Doston JO'RAMURODOV,
SamDChTI katta o'qituvchisi**

• **Qonunchilikdagi yangiliklar**

JAMOAT JOYLARIDA HAM NAZORAT KUCHAYADI

Odatda ko'cha-ko'ya huquq-tartibot idoralari xodimlarining nazorat tadbirlari borasida ko'pincha muammoli vaziyatlar yuzaga kelayotganligiga guvoh bo'lar edik. Endi mazkur holatlar bo'yicha ham qonuniy tartib joriy etildi. Hukumat qarori (754-son, 01.12.2025 y.) bilan "Ichki ishlar organlari patrul-post xizmati saf bo'linmalari xodimlari tomonidan jamoat joylarida fuqarolarni elektron identifikatsiya qilish tartibi to'g'risida"gi nizom tasdiqlandi.

Nizom ichki ishlar organlari patrul-post xizmati saf bo'linmalari xodimlari tomonidan jamoat joylarida fuqarolarning shaxsini elektron texnik vositalar, shu jumladan, planshet orqali aniqlash tartibini belgilaydi.

Xodimlar quyidagi hollarda fuqarolarni to'xtatishi va shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar yoki "E-patrul" tizimi orqali ularning shaxsini aniqlashi mumkin:

- shaxs jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan yoxud qidiruvda deb gumon qilish uchun asoslar mavjud bo'lganda;
- shaxsni sodir etilgan jinoyat yoki ma'muriy huquqbuzarlik haqida ma'lumotga ega deb hisoblash mumkin bo'lganda;
- qonunga muvofiq shaxsni ushlab turish uchun boshqa qonuniy asoslar mavjud bo'lganda.

Xodim shaxsga uni to'xtatganlik hamda undan shaxsini aniqlash talab etilayotgani sabablari va asoslarini tushuntirib berishi shart.

Fuqarolarning shaxsiga doir ma'lumotlari planshet orqali "E-patrul" tizimiga to'g'ri kiritilishiga patrul-post xizmati xodimi mas'ul hisoblanadi.

Xodim "E-patrul" tizimidagi shaxsga doir ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor etilmasligi hamda ushbu ma'lumotlardan g'arazli maqsadlarda foydalanilmaslik uchun javobgardir. Demak, endi behuda to'xtatishlar, bo'linmaga olib ketishlarga ham barham beriladi.

**Hazratjon Meyliqulov,
shahar adliya bo'limi davlat
xizmatlari markazi bosh mutaxassisi**

XITOIY IMPERATORI BO'LGAN — SAMARQANDLIK O'G'OLON KAN YALOSHAN

Kan Yaloshan o'zbek tarixshunosligi uchun noma'lum va o'rganilmagan siymodir. Qator xitoy manbalarida, shuningdek, kanadalik xitoyshunos Edvin Pulliblenk, amerikalik sharqshunos Govard Levi, rus sharqshunoslari Iakin Bichurin va Lev Gumilyov kabilarning asarlarida bu tarixiy shaxs haqida ma'lumotlar yozib qoldirilgan, ularni umumlashtirib quyidagi tarixiy-badiiy lavhani maydonga keltirdik. Unda Xitoyning eng buyuk saltanati Tang imperiyasiga qarshi kurashib, harbiy mahorati bilan imperator darajasiga yetgan, zamonaviy adabiyotlarda An Lushan (703-757-y.) dastlabki xitoy manbalarida esa Kan Yaloshan deb keltirilgan.

Kan Yaloshanning "Kan" nisbasiga asoslansak, uning tug'ilgan yurti Samarqand bo'lgan, keyingi manbalarda u An Lushan, deb keltiriladi, xitoycha "An" (to'liq "Ango") Buxoroni bildirgan, anglashiladiki, Kan Yaloshan Xitoyga Samarqanddan Buxoro orqali kelgan.

Xitoy manbalarida Kan Yaloshan (Alp Arslon – muallif Erkin Musurmonovdan) Xu ya'ni qadimgi xunlar elining vakili, deb keltirilgan. Mahalliy urug'lar sulolalari hukmron bo'lgan Ashina elidan keyin ikkinchi o'rinda turgan Ashide urug'idan bo'lgan Kan Yaloshanning onasi Ko'k Tangri dinining shomoni bo'lgan. Ilmiy-badiiy asarlarda keltirilishicha, Kan Yaloshan dunyoga kelganda turli ilohiy kuchlar uni o'z himoyasiga olishgan ekan. Yangi tug'ilgan chaqaloqning yotgan joyi tuman kabi ko'kimtir tusga kirib, yaltirab tovlana boshlagan, qayerdandir ulkan qashqirlar galasi kelib chaqaloqni qo'riqlab atrofida doira qurgan, so'ng ortiga qaytib ketishgan...

Bolaga tarbiyachi bo'lib yollangan keksa sug'd tarbiyachisi o'tmishda katta savdogar bo'lib, karvonlari bilan Chinga qatnaganligi sababli iste'moldagi ko'plab tillarni yaxshi bilgan. Kan Yaloshan o'tonasi istagiga ko'ra savdo uchun diplomatiya va psixologiyadan tashqari ustozidan sug'd, xitoy kabi tillarni o'rgangan. Kan Yaloshan taxminan 14 yoshlarida Tang imperiyasi hududiga kelib qolgan. U ayrim manbalarda keltirilishicha, olti yoki to'qqiz tili bilganligi uchun dastlab bozorlarda xitoy, so'g'd va turk savdogarlari orasida tilmoqlik qilgan. So'ngra Xitoy shimoliy garnizonlarning biriga askarlik xizmatiga o'tgan.

Qoraxitoy va Nayman ellarining ajdodlari bo'lgan kidanlar tuzgan Lyao imperiyasi sakkizinchi asrning birinchi choragida hozirgi Xitoyning ulkan hududini egallagan. Xitoy manbalarida jangchilikdan xitoyning amaldagi imperatori qadar yuksaklikka erishgan Kan Yaloshan butun faoliyati davomida kidanlar bilan "yaxshi-yomon" munosabatda bo'lib kelgan.

Xitoy qo'shinida oddiy askarligi davridayoq jasurligi va yengilmasligi bilan Tang imperatori Suanszong nazariga tushadi. Askarlikdagi mahorati tufayli imperator sekin - asta uni general darajasiga ko'taradi. Barcha uni general An Lushan, deb atay boshlashadi. Kan Yaloshan armiyasidagi 32 xitoy-xan qo'mondoni o'rniga o'zining yurtdoshlaridan bo'lgan turkiy jangchilarni qo'mondon qilib ko'taradi. Qisqa vaqt ichida General Kan Yaloshan qo'shini yengilmas qudratga yetadi.

O'ziga ishongan, yovqur va jasur Kan Yaloshan saroyda bo'ladi barcha bayram va marosimlarda qatnashar edi. Imperatorning butun xitoy tarixidagi eng go'zal to'rt ayolning biri bo'lgan kanizagi Yan Yuyxuangga alohida hurmat ko'rsatar edi. General Kan Yaloshanning qo'rqmasligi va jasorati kanizakni o'ziga rom etdi. Bu munosabatlar ularning o'rtasidagi otashin muhabbatga olib keldi.

General Kan Yaloshanning saroydagi kundan kun ortib borayotgan obro'idan mahalliy amaldorlar xavotirga tushishar, cho'rtkesar va tantiligidan hayiqishar, oddiy el esa jasurligi uchun uni olqishlar, shoirlar unga bag'ishlab qasidalar yozishar edi.

Xitoylik saroy a'yonlari, harbiylar va ministrarning ko'pchiligi chetdan kelib qolgan generalga ishonmas, uni ko'rolmasliklari sabab imperator bilan uning orasiga turli ig'vo va fitnalarni urchita boshlaydilar. Uning amalini suiste'mol qilayotir, deb ustidan jinoiy ish qo'zg'ashga harakat qilishadi. Manbalarda Kan Yaloshan (Alp Arslon) turklarga xos yovqurligini chinliklarning ayyorligi bilan o'zida mujassam ettira olgan uddaburon shaxs sifatida ta'riflangan. Kan Yaloshan dushmanlar uni yengishidan oldin o'zi raqiblarini tag-tugi bilan yo'q qilishga kirishdi. General barcha masalalarga nuqta qo'yish uchun silliq tarzda hokimiyatni o'z qo'liga olishni rejalashtirdi.

General Kan Yaloshan qo'shinini yurtdan borib qolgan ko'chmanchilar, sara kidanlar va mahalliy ko'k turklar bilan kuchaytirdi. Generalning ko'rsatmasiga ko'ra sug'd savdogarlari xitoyning turli yerlaridagi siyosiy vaziyat haqida razvedka ma'lumotlarini generalga yetkazib turishdi.



Saroydagi vaziyat hokimiyatni qo'liga olishga juda o'ng'ay kelganda general reja bo'yicha harakatga keldi.

755-yili xalqning hukumatdan noroziligidan foydalangan general Kan Yaloshan isyon ko'taradi. Bu qo'zg'alondan avvalroq general suyuklisi Yan Yuyxuanni to'ntarishdan ogohlantirgan edi. Unga imperatorni taxtdan ag'darib, o'rniga o'zi kelgach, Yan Yuyxuanni kanizak emas, balki imperiya malikasi qilishning va'dasini berib tinchlantirgan. Yan Yuyxuan Kan Yaloshandan faqat shu narsani iltimos qiladi: yaqin maslahatchisi Chuanga sirni boy bermaslik va ishonmaslikni, Imperator Suanszongni esa tirik qoldirishni...

General Kan Yaloshanning 150 minglik qo'shini imperator saroyi tomon yurish boshladi. Hokimiyat birligiga putur yetdi, Tang imperiyasi parchalana boshladi.

Isonga javoban imperator saroydagi generalning sevimli o'g'lini qatl ettiradi va biri 60 ming, ikkinchisi 110 ming xitoy jangchilaridan iborat hukumat qo'shinini isyonni bostirishga yuboradi.

General Kan Yaloshan ikki armiyani ham tor-mor qilib, kunchiqar poytaxti - Xenan viloyatining markazi, Xitoyning qadimgi yetti poytaxti tarkibidan joy olgan Luoyangni egallaydi. So'ng saroy qaylashgan boshkent Changanga g'olib sifatida kirib boradi. Imperator a'yonlari bilan poytaxtni tashlab, qochqinlikda jon saqlaydi. Kan Yaloshan imperator, deb e'lon qilinadi! U 756-yilda yangi Buyuk Yan imperiyasi tuzilganligini e'lon qiladi!

General Kan Yaloshan tuzgan Yan imperiyasi qo'shini bilan xitoy hukumati Tang imperiyasi armiyasi Lanbao kenti yo'lida yana qayta to'qnashadi. Bu jang muhim ahamiyat kasb etib, hokimiyatni quvvatlovchi xitoydagi barcha kuch shu yerda to'planadi. Shensi viloyatidagi Chentao ko'li yonida shiddatli jang bo'ladi. Kan Yaloshan armiyasi og'irkarvon Tang imperiyasi qo'shinini tez va oson tor-mor qiladi.

756-yil o'ninchi oyida Kan Yaloshan qo'shini Xitoyning uchinchi yirik shahri Shensini egallaydi.

O'tmishdan xitoy imperiyalari raqiblariga qarshi ko'pincha boshqalarning, chet qabilalarning qo'li bilan kurashish strategiyasini olib borgan. Bunday puxta siyosat ko'k turklar, kidanlar, uyg'ur va Turonning yollanma jangchilari qismatida, afsuski, ayanchli aks etdi. Bu ellar garchi jangovarlikda mohir bo'lsa-da, sodda va ishonuvchanliklari bilan fitna qurbonlariga aylinishar edilar. Ular birlashib yengilmas kuch bo'lish o'rniga ko'pincha xitoy imperiyasi manfaatlari yo'lida o'zaro kurashib tarix yaratishgan. Kan Yaloshan isyon bilan Tang imperiyasi taqdiriga nuqta qo'yilayotgan tarixiy vaziyatda, ularning joniga uyg'ur va tibetliklar qo'shini oro kirishdi!

Ison tufayli taxtdan voz kechgan Tang imperatori Suanszong Chenduning boshkenti bo'lgan Sichuan qo'rg'onida jon saqlaydi.

Uning o'g'li va vorisi Sutszong uyg'ur va tibet hukmdorlari bilan tezda aloqaga kirishadi.

Uyg'ur xoqoni Eletmish Bilgaqag'an (Moyunchurxon 747—759-yy.) Sutszongga yordam berishi uchun bir qancha shartlarni, jumladan, kelajakda uyg'urlar Tang imperiyasidan kam bo'lmaydigan hokimiyatga ega bo'lishi va buni xitoy imperiyasining tan olishini, xanlar bilan teng muomala yuritishi kabi shartlarni aytadi. Xitoy shahzodasi bunga ko'nadi va yosh uyg'ur xonzodasiga uylanib, uni "bilka" ya'ni "dono malika" darajasiga ko'taradi. Eletmish Bilgaqag'an xitoy armiyasi qo'mondoni general Guo Sziiga uyg'urlarning bo'ri boshi suratli bayrog'iga ta'zim qilib, o'pishni buyurdi. Bu rasmiyatchiliklar amalga oshgach, uyg'ur-xitoy kelishuvi amalga oshdi.

Uyg'urlar Tang sulolasini saqlab qolish uchun jiddiy kurash olib borishdi. Buning uchun ular boshqa turkiy ellar bilan kurashib bo'lsa ham, o'z maqsadlari sari intilishdi. 756-yilning o'ninchi oyida Bilgaqag'an Kan Yaloshanga qarshi yurishni boshladi. U dastlab isyonchilar tarafida kurashgan o'g'uz eli qo'shini bilan jangga kiradi va ularni yengadi.

Bu vaqtga kelib, imperator Kan Yaloshanga suyuklisi Yan Yuyxuanning Tang imperiyasiga xiyonat qilganlikda ayblanib ipak ip bilan bo'g'ib o'ldirilgani haqidagi xabar yetib keladi. General juda qattiq qayg'urdi.

Kan Yaloshan juda kuchli strateg edi. U oxirigacha g'alaba qozonishiga, bu yo'lda uni hech kim, na tabg'aqlar, na Bilgaqag'an qo'shini to'xtata olmasligiga zarracha shubha qilmasa edi. U Tang imperiyasining barcha o'z tomonlarini ipidan ignasigacha o'qiy olgan. "Falsafasevar" xitoy qo'shini qudratiga nafaqat u, balki chinliklarning o'zlarini ham shubha qilishga ishonar edi. Xitoy qo'shini jangchi uyg'urlar yoki tibetliklar bilan birlashgan taqdirda ham ularni yengish muammo tug'dirmasa edi. Bu birlashma In-Yangdek qo'shilmas tushunchalar edi. Bilgaqag'an qo'shini jangga boylik istab kirgan bo'lib, ular Tang armiyasi uchun jonlarini qiynab kurashmasligi kunday oydin edi. Qolaversa, ko'k bo'ri hurmati uyg'urlar bilan kelishish mumkinligi hech qachon kun tartibidan tushmagan. Bu imperator Kan Yaloshanning fikri edi.

Biroq xiyonat yuz berdi. General suyuklisi go'zal Yan Yuyxuanning maslahatchi Yan Chjuandan ehtiyot bo'lishligi haqidagi xavotiri, afsuski, o'zini oqladi. 757-yil birinchi oyning o'ttizinchi tunida g'alabalardan sarxush bo'lgan Kan Yaloshan uyquga ketdi. Tushida Darg'om yonidagi uyini, tug'ilganida o'toviga tashrif buyurgan ko'k bo'rilarni ko'radi. Qashqirlar uning atrofida aylanib, ko'kka qarab ulib, o'rmonga yo'l olishadi, ularga Alp Arslon ham ergashadi, o'rmonda uni ota-onasi qarshi olishadi, bag'riga bosishadi... Shu vaqt Kan Yaloshan ko'ksidagi qattiq og'riqdan uyg'onib ketdi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, doimiy hamrohi, maslahatchisi Yan Chjuan va tabg'aqlarning oltin zarlariga sotilgan tansoqchisi Li Juyer uning ko'ksiga xanjar sanchishgan edi.

Tang imperiyasini tiz cho'ktirgan general, yangi saltanat tuzgan imperator Kan Yaloshanning hayoti mana shunday yakun topadi.

Yan yoki Buyuk Yan davlati 756-yili general Kan Yaloshanning Tang imperiyasiga qarshi 755-yili ko'targan isyoni tufayli tashkil topgan. Xitoy Tang imperatori isyonni bostirishga o'z qo'liga, qochqinlikda jon saqlagan. Kan Yaloshan Tang imperiyasining ikki poytaxti - Luoyang va Changanni o'z hukmiga o'tkazgan. Yan davlati 763-yilgacha mavjud bo'lib, uni to'rt imperator boshqargan (Kan Yaloshan va o'g'li, Ashina Sugan va o'g'li). Boshkenti Luoyang bo'lgan, ayrim holda poytaxt Fangshan (Pekin)ga ko'chgan. Yan imperiyasi 7 yillik hukmronlikdan so'ng batamom tugatilgan.

Yan imperiyasi tugatilganidan biroq vaqt o'tib xitoyning shimoliy o'lkalari turkiy ellar, Xebey chegara viloyati xalqlari Kan Yaloshan va Ashina Suganni mamlakatni o'z panohida saqlovchi buyuk farishtalar, deb ilohiyashtirdilar. Ularga atab qahramonlik qo'shiqlari, madhiyalar ijod qilishdi, yillar kuylashdi.

Asli Samarqandlik bo'lgan, qadimgi Xitoyda imperiya tuzgan Kan Yaloshan va Ashina Sugan kabi tarixiy shaxslarning faoliyati yanada keng o'rganilishi va xalqqa tanitilishi maqsadga muvofiq.

Erkin MUSURMONOV,
Samarqand davlat chet tillari instituti
Qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasini
mudiri, professor

Lutfullo SULTONOV

Samarqandning taniqli poligrafchilaridan biri — Lutfullo Sultonov 67 yoshida vafot etdi.



U 1958-yil 20-martda Samarqand shahrining So'zangaron mavzesida tavallud topdi.

Mehnat faoliyatini 1974-yilda sobiq viloyat bosmaxonasida harf teruvchi sifatida boshladi. Ikki yil mobaynida shu sohada faoliyat yuritgach, 1976—1978-yillarda mamlakat Qurolli kuchlari safida yigitlik burchini ado etdi. Armiyadan qaytgach, "Lenin yo'li" (hozirgi "Zarafshon") gazetasi bosmaxonada sahifalovchisi vazifasiga ishga olindi. Mehnat faoliyati mobaynida o'z ishiga diqqat-e'tiborli bo'lib, kasb sirlarini puxta egallashga harakat qildi. Buni sezgan gazeta muharriri Ahmadjon Muxtorov uni SamDuga o'qishga kirib, oliy ma'lumotli mutaxassis bo'lishga da'vat etdi. Muharrir taklifi bilan oliy ta'lim maskaniga o'qishga kirgan Lutfullo Sultonov tarix fakultetini a'lo baholar bilan tugatgach, yana qadrdon jamoasi — "Lenin yo'li" gazetasi tahririyatiga ishga keladi. Gazeta chiqarishga mas'ullik vazifasida 1991-yilgacha halol mehnat qildi.

1991-yilda Xalq deputatlari Samarqand shahar Kengashi va shahar hokimligining "Samarqand" gazetasi tashkil etilgach, yangi gazeta tahririyatida faoliyatini davom ettirdi. Mas'ul kotib vazifasida ishlash jarayonida gazetani texnik jihatdan bezatish, mazmun va mundarijasini boyitishga katta hissa qo'shdi. Tahririyat jamoat ishlarida ham jonkuyarlik bilan mehnat qildi. Mehnat faoliyatining asosiy qismini "Samarqand" gazetasida o'tkazgan Lutfullo Sultonov o'zining mazmunli, o'tkir tanqidiy va tahliliy maqolalari bilan ham gazetonlar e'tiborini qozondi. Tahririyatda u 2008-yilga qadar faoliyat yuritdi.

Lutfullo Sultonovning porloq xotirasi qalbimizda doimo saqlanadi.

"Samarqand" gazetasi tahririyati jamoasi

BANDLIKNI TA'MINLASH VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DRAYVERI

Turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, insonlarni ish bilan ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda turizm nafaqat mamlakatning xalqaro nufuzini oshiruvchi omil, balki aholining daromadini ko'paytirish, yangi ish o'rinlari tashkil etish va kichik biznesni rivojlantirish, xususan, ma'lum bir aholi qatlamining daromadli qilib, ularni kambag'allikdan chiqarishning samarali vositasiga aylanmoqda.

Turizmning asosiy afzalliklaridan biri — bu aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha yuqori salohiyatga egaligi hisoblanadi. Birgina sayyoh tashrifi ham bir qancha sohalarga talabni oshiradi. Jahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, turizm yaratilgan har bir ish o'ri yana 5-6 ta qo'shimcha ish o'rnini boshqa tarmoqlarda vujudga keltiradi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda turizm sohasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Yangi mehmonxonalar, transport logistikasi, madaniy meros obyektlarini ta'mirlash va rekreatsiya hududlarini yangilash ishlari minglab yangi ish o'rinlarini tashkil etmoqda.

Ma'lumki, qishloq va olis hududlarda ish o'rinlarini yaratish masalasi dolzarb. Turizm esa bu joylarda iqtisodiy faollikni kuchaytirishning eng tezkor usullaridan biridir. Qishloq uyalarini mehmonxonalariga moslashtirish, agroturizm, eko-yo'nalishlar, mahalliy taomlar tanlovi, milliy hunarmandchilik mahsulotlarini sotish kabi faoliyat turlari aholiga doimiy daromad manbaini taqdim etmoqda.

Bunday yo'nalishlar ayniqsa xotin-qizlar, yoshlar va keksalar bandligini ta'minlashga katta hissa qo'shmoqda. Xonadon asosidagi kichik mehmonxonalar va oilaviy xizmatlar joriy etilishi orqali hech qanday katta sarf-xarajatsiz yangi ish o'rinlarini tashkil qilish mumkin.

Turistlarni jalb qilish uchun infratuzilmani yaxshilash talab etiladi. Bu esa bevosita yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyatlarini yanada oshiradi. Xususan, yo'l va transport infratuzilmasini yaxshilash — qurilish xodimlari, muhandislar, haydovchilar uchun, mehmonxonalar va dam olish maskanlarini ko'paytirish — xizmat ko'rsatish sohasidagi mutaxassislar uchun, masofaviy xizmatlar va raqamli turizm — IT mutaxassislari, gidlar, onlayn kontent ishlab chiqaruvchilar uchun, madaniy meros obyektlarini obodonlashtirish — mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlarini tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Infratuzilmaning barqaror rivojlanishi butun aholi qatlamlariga ta'sir ko'rsatadi, chunki har bir qurilgan yo'l, ochilgan turistik infratuzilma obyektlari yoki dam olish maskani yangi mehnat bozori barpo etadi.

Turizm sohasi xususiy tadbirkorlik uchun eng foydali yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mehmonxona, xostel, kafe-restoran, suvenir do'konlari, turistik agentliklar, transport xizmatlari kabi loyihalar kichik investitsiya bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

Umuman olganda, turizmning rivojlanishi — mamlakat iqtisodiyotida qo'shimcha qiymat yaratish, aholi daromadini ko'paytirish va yangi ish o'rinlarini tashkil etishda muhim omildir. Ayniqsa, qishloq hududlarida turizm orqali bandlikni oshirish iqtisodiy o'sish bilan birga, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Sarvar ABDUXAMIDOV
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Turizm
kafedrasini mudiri



KECHIRIMLILIK OJIZLIK BELGISIMAS...

Insondagi eng yaxshi fazilatlaridan biri bo'lgan kechirimlilik faqat hissiyot yoki odob emas, balki, insonning yorug' mezonidir. U insonni nafsning tor dunyosida emas, qalbnig keng olamida yashashga chorlaydi. Mo'min uchun kechirimlilik ojizlik emas, aksincha, ruhiy kuch va kamolotning belgisidir.

Aslida kechirimlilik nafaqat ma'naviy, balki, siyosiy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Bugungi kunda davlat miqyosida amalga oshirilayotgan "Mehr" dasturlari, avf aksiyalari va yarashtirish jarayonlari bunga yaqqol misol. Ular insonga ikkinchi imkoniyat, ya'ni, hayotni yangi sahifadan boshlash imkonini beradi. Bu siyosatning ma'naviy zamini aynan islomiy avf va rahmat tamoyillariga to'la mos keladi.

Kechirimlilik madaniyatini jamiyatda kuchaytirish insonlarning bir-biriga ishonchini tiklashdir. Agar, har bir inson o'z hayotida kichik keklarni, uzoq vaqt yig'ilib qolgan adovatni kechirib yuborsa, nafaqat o'zi yengil nafas oladi, balki, butun muhit sog'lomlashadi.

Haqiqiy mo'min kimningdir xatosini kechirganda, u zulmni oqlamaydi, nafsini yengadi. Qur'onda shunday deyilgan: «Yomonlikning jazosi o'z misldek yomonlikdir. Kim avf etib, isloh qilsa, uning ajri Allohning zimmasidadir. Albatta, U Zot zolimlarni sevmas». Buning ma'nosi shunchalik chuqurki, inson kimnidir kechirsa, u nafaqat Allohning amrini bajaradi, balki, o'zi ham ruhiy yengillikka erishadi.

Alloh taolo Qur'oni karimda: "Ular yengillikda ham, qiyinchilikda ham nafaqa qiladiganlar, achchig'ini yutadiganlar va odamlarni avf qiladiganlar. Alloh yaxshilik qiluvchilarni sevadir", deb marhamat qilgan. Bu oyat kechirimni faqat insonlararo munosabatlar emas, balki, Alloh muhabbatiga yetishtiruvchi yo'l sifatida bayon etadi.

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning hayotlari kechirimlilikning eng oliy namunasi. Toif ahli u zotni toshbo'ron qilganida ham, Payg'ambarimiz ularni la'natlamadilar. Farishtalar "istasang, ularni ikki tog' orasida yo'q qilib yuboramiz", deganida, u zot: "Yo'q, balki, ulardan Allohga ibodat qiluvchi avlodlar yetishi chiqishi mumkin", deb javob berdilar. Bu voqea kechirimning qanchalik keng va insonparvar ma'no kasb etishini ko'rsatadi.

Makka fathi kuni ham Payg'ambarimiz (s.a.v.) butun umr mobaynida o'zlarini haqorat qilgan, quvgan va urush ochgan kofirlarga yuzlanib: "Bugun sizlarga malomat yo'q, boringlar, hammangiz ozodsiz", degan edilar. Bu so'zlar nafaqat diniy, balki, insoniy qadriyatning eng yuqori darajasi sifatida tarixga kirdi.

Imom G'azzoliy "Ihyou ulumiddin" asarida kechirish — qalbning pokligiga yo'l ekanini qayd etadilar. Avf etgan kishi nafsidan ustun kelgan bo'ladi, deyilar. Darhaqiqat, kechira olgan inson nafsining g'azabini boshqaradi, o'tkinchi nafratni emas, abadiy tinchlikni tanlaydi.

Kechirimlilik — faqat shaxsiy ruhiy holat emas, balki jamiyatning barqarorligi uchun ham asosiy omil. Nafrat, kek va intiqom hissi kuchaygan joyda muhabbat va ishonch so'nadi. Alloh taolo shunday deydi: «Agar avf etsangiz, o'tib yuborsangiz va kechirsangiz, bas, albatta, Alloh o'ta mag'firatlidir, o'ta rahmlidir». Bu oyat jamiyatning hamda oilaviy munosabatlarning tinchligi kechirim ruhidan boshlanishini anglatadi.

Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: Dunyo va oxiratdagi go'zal axloqqa dalolat qilaymi?" dedilar. "Ha, yo Rasululloh!" deyishdi. "Senga zulm qilganni avf qil, aloqani uzganga aloqani bog'lagin. Seni mahrum qilganga ber", dedilar.

Bu hadis insonning ichki g'azabini yengishining ulug' savobini ko'rsatadi. G'azabni yutish nafsni tarbiya qilish, qalbn poklash va boshqalarning xatosini yaxshilikka aylantirishning yo'lidir.

Ko'rinadiki, kechirimlilikni hayot tarziga aylantirgan inson nafaqat o'z qalbnini, balki, boshqalarning hayotini ham yengillashtiradi. U nafrat o'rniga mehr, intiqom o'rniga rahmat, g'azab o'rniga sabr bilan javob qaytaradi.

Inson kechira olsa, u Allohning sifatiga yaqinlashadi. Shu bois kechirimlilik — imonning yuksak darajasi, qalb pokligi va jamiyat sog'lomligi garovidir.

**Muhammadxon PO'LATOV,
Shohi Zinda jome masjidida imom noibi**

SOHIBQIRONNING YEVROPA SAHNASINI ZABT ETISHI

BUNDA FARANG ADIBI JAK PRADONNING "KO'MAGI"

Jak Pradonning nomini ko'plab fransuz adabiyotshunoslari ham bilishmaydi, bilganlari uning ismini adashib Nikola, deb yuritishadi. Vaholanki, Jak Pradon mashhur fojeanaviy Jan Jak Rasinning zamondoshi bo'lgan, u bilan raqobatda ijod qilgan. Bu ikki adibning raqobatchiligi shu darajada bo'lganki, ular aynan bir xil mavzularda asarlar yozishgan va hatto ularning pyesalari aynan bir vaqtlarda sahnaga qo'yilgan, ko'plab shov-shuvlarga, to'polonlarga sabab bo'lgan...

Aytish mumkinki, Jak Pradon iqtidori Rasindan qolishmagan va hatto undan ustun turgan. Pradonning katta muvaffaqiyat bilan qo'yilgan dastlabki pyesalari ham fikrimizga dalil bo'la oladi. Bu pyesalarning birinchisi «Piram va Tisbe» (1674-yil) bo'lsa, ikkinchisi «Amir Temur yoxud Boyazidning o'limi» (1675-yil) dir.

«Amir Temur yoxud Boyazidning o'limi» Jan Rasinning «Boyazid» (1672-yil) pyesasiga javob tariqasida yozilgan bo'lib, undan keskin farq qiladi. Rasinning asari ko'p jihatdan Shekspirning «Otello»siga o'xshab ketadi, zero, ularning ikkalasida ham muhabbat va rashk, vafo va xiyonat mavzulari Sharq hayotiga murojaat qilinib, yoxud sharqlik qahramonlar vositasida yoritiladi. Rasin asari qahramonlaridan biri Boyazid tarixiy shaxs — Yildirim Boyazid bilan aloqasi yo'q, u sulton ham, sarkarda ham emas — sulton Amurat (Murod)ning ukasi, xolos. Tarixiy Boyazid bilan pyesa qahramoni o'rtasidagi yagona o'xshashlik ularning ikkisi ham turkligidir. Asar nomi «Boyazid» bo'lsa-da, uning markazida Roksana obrazi turadi, barcha voqealar uning atrofida ro'y beradi: sulton Amuratning harbiy safarga ketganidan foydalangan uning mashuqasi Roksana Boyazidga ishq izhor qiladi, biroq Boyazid o'z xolavachchasi Atalidaga oshiqi beqaror. O'z muhabbatiga munosib javob olmagan Roksana Boyazidni o'ldiradi va o'zi ham sulton Amurat yuborgan chopar qo'lida jon taslim qiladi.

Rasindan farqli o'laroq Pradon o'z asarini tarixiy haqiqatga yaqinlashtirishga harakat qilgan. Adib o'zidan ilgari turli Yevropa xalqlari adabiyotlarida yaratilgan asarlar orqali buyuk Sohibqiron tarixini birmuncha jiddiy o'rganganga o'xshaydi. Bir qarashda pyesada tilga olingan voqealar ham tarixiy aniq sanada — 1402-yili ro'y beradi. Biroq Pradon mana shu voqealarni Samarqandga — Ko'ksaroyga ko'chirib, tarixiy haqiqatga xilof ish tutgan.

Bandi etilgan Boyazidning temir qafasda saqlanganligi haqida G'arbda keng tarqalgan rivoyatlar g'irt afsona bo'lganidek, J. Pradon pyesasida uning Samarqandga keltirilishi ham yurisdan o'zga narsa emas. Bu holni faqat badiiy to'qima, deb qarash mumkin. Shu to'qimaga binoan sultonning qizi Asteriya ham otasi bilan birga, qizning yagona maqsadi qanday qilib bo'lsa ham otasini tutqunlikdan va o'limdan xalos qilish.



Unga bu ishda sevgilisi, Amir Temur saroyida boshpana topgan yunon shahzodasi Andronik yordam berishi kerak. Ota va uning qizi hamda Andronik Amir Temurga suiqasd rejasini ishlab chiqishadi. Amir Temur bundan ogoh bo'lgach, qizining muhabbati evaziga otasini tutqundan ozod qilishga rozi bo'ladi. Qizining sevgan yigiti bilan baxtli bo'lishini istagan Boyazid esa zahar ichib halok bo'ladi. Qiz ham otasining yo'lidan bormoqchi. Shu orada Asteriya bilan Andronik o'rtasidagi sevgidan xabar topgan Amir Temur niyatidan qaytadi va olijanoblik qilib, Asteriyani Andronikka topshiradi. Bu orada Amir Temurning qaylig'i — Trabzon malikasi Araksida tashrif buyuradi hamda asar sohibqiron va Araksidaning umrlarining oxirigacha bir-birlariga sodiq qolish haqidagi qasamyodlari bilan yakunlanadi.

Asarga qo'sh nom berilishi muallifning bosh qahramon xususida ikkilanganidan darak beradi. Bizningcha, buning sababi ikkita: birinchisi, Pradon Rasinning yuqorida tilga olingan pyesasidan chiroyliroq, mukammalroq asar yozishni xohlagani bo'lsa, ikkinchisi, Pradon asarining voqealari markazida chindan ham Amir Temur va sulton Boyazid turadi. Bu ikki qahramon asarning boshidan oxirigacha birga

bo'lishadi: birinchi pardaning ilk ko'rinishi Anqara jangida mag'lub bo'lgan Boyazidning tutqun etilib, Samarqandga keltirilganligi e'lon qilinib ochilsa, beshinchi pardaning so'nggi ko'rinishi uning zahar ichib, hayotdan ko'z yumishi hamda Amir Temur va Araksidaning murod-maqсадga yetishi bilan yakunlanadi.

Amir Temur obrazi shubhasiz muallifning eng katta yutug'i. Bu obraz talqinida Pradon oldingi G'arbiy Yevropa adiblaridan (xususan ingliz dramaturgi Kristofer Marlodan) ancha yuqori turadi. Zero, Pradon asarida Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda va fohit, balki, chin inson va oliyanob qalb egasi sifatida namoyon bo'ladi. U Boyazid, Asteriya va Andronikning o'ziga qarshi uyushtirilgan fitnasidan ogoh bo'lganidan keyin ham ularni avf etadi, hayotlarini saqlab qoladi.

Do'stlik, muhabbat kabi insoniy sof tuyg'ularni tasvirlashga berilib ketgan muallif ayrim sahnalarni, xususan, Boyazidning Amir Temur tomonidan ko'ranishini ham bo'rttirib yuboradi. Shunday sahnalardan birida Asteriya Amir Temurga zahar solingan sharob tutib, bu fosh bo'lgach, buyuk fohit qizni o'z askarlarining yoniga kirgizib yuborib, uni otasining ko'zi o'ngida sharmanda qilmoqchi bo'ladi. Biroq bu gap po'pialigicha qolib ketsa-da, Amir Temurning o'z dushmanlariga nisbatan naqadar shafqatsiz bo'la olishidan darak beradi.

Albatta, «Amir Temur yoxud Boyazidning o'limi» Jak Pradon ijodidagi ilk pyesalardan biri bo'lganligi sababli ayrim kamchiliklardan xoli emas. Biroq fransuz dramaturgiyasida Amir Temurga bag'ishlangan ilk pyesa hisoblanmishi bu asarning ahamiyati katta, zero u nafaqat Yevropa dramaturgiyasida, balki jahon opera san'atida ham sohibqiron mavzusining ravnaqiga ulkan hissa qo'shdi. Jak Pradon pyesasi asosida yaratilgan eng birinchi opera bastakor Julio Sezare Korradning "Buyuk Amir Temur" operasi bo'lib, u Venesiyaning opera teatrida 1689 yilda qo'yilgan.

XVII-XIX asrlar G'arbiy Yevropa dramaturgiyasida Amir Temur obrazi yangicha talqin qilina boshlandi. Ayniqsa, saltanat manfaatlariga haqida yoxud chuqur insoniy histuyg'ular haqida gap ketganda Amir Temurning odamiyligi yanada yaqqolroq namoyon bo'la boshladi. J. Pradon va N. Rouning asarlarida ilk bor paydo bo'lgan bu motiv keyingi asrlarda G'arbiy Yevropa adabiyotida Amir Temurning asl siyosini ko'rsatishda muhim omillardan biri bo'ldi.

**U. QARSHIBOYEVA,
SamDChTI professori**

MADANIY ALOQALAR DO'STLIK RISHTALARINI MUSTAHKAMLAYDI



Viloyat musiqali drama teatrida O'zbekistonda Xitoy madaniyati kuni tadbirlari doirasida maxsus konsert dasturi tashkil etildi.

Konsertning tantanali ochilishida O'zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri o'rinbosari Murodjon Majidov va Xitoy Xalq Respublikasi madaniyat vaziri o'rinbosari Lui Chuan

o'rtasidagi madaniy hamkorlik yildan-yilga kengaymoqda — dedi Lui Chuan. — Bunday tadbirlar xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlikni yanada mustahkamlashga xizmat

qiladi. Biz o'z san'atimizni Samarqanddek qadimiy madaniyat o'chog'ida namoyish etayotganimizdan mamnunmiz.

Tadbir doirasida Xitoyning milliy choy marosimi, kaligrafiya san'ati, an'anaviy hunarmandchilik namunalari bilan iborat

ko'rgazmalar ham tashrif buyuruvchilar e'tiboriga havola qilindi. Mehmonlar nafaqat ko'rish, balki ayrim jarayonlarda ishtirok etish imkoniga ham ega bo'lishdi.

Katta sahnada ijro etilgan kuy-qo'shiq va raqslar, nodir san'at asarlari yig'ilganlarga bayram kayfiyatini ullaishdi.

— Bunday madaniy uchrashuvlar talabalar va yoshlar uchun bebaho imkoniyat, — deydi Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi, xitoylik pedagog Tang Yide. — Ular boshqa xalqning san'ati va an'alarini o'z ko'zi bilan ko'rib, his qilib o'rganishadi. Bu nafaqat ta'lim jarayoni boyitadi, balki, xalqaro do'stlikka xizmat qiladi.

Tadbir ishtirokchilari ikki xalq o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik ruhini yanada chuqurlashtirgan bunday tadbirlar kelgusida ham davom etishiga umid bildirdilar.

O'z muxbirimiz

SAMARQAND

Muharrir v.b: Olim SONNIBOYEV

Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 06.09.2012-yilda 09-05 raqami bilan qayta ro'yxatga olingan. Indeks: 5505

Gazeta tahririyat matbaa bo'limida terildi va sahifalandi. Tahririyat matbaa bo'limi O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 2.06.2017-yilda 18-3959 raqami bilan ro'yxatga olingan.

MUASSIS: Samarqand shahar hokimligi

Gazeta «Noshir Iyuk» MChJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Buyurtma: 568 Adadi: 3 000 nusxa.



MANZIL: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy.

TELEFONLAR: +998 66 233-58-40, +998 66 233-67-79.

Gazeta haftaning payshanba kuni chiqadi.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar muallifga qaytarilmaydi.

Sotuvda erkin narxda.

Navbatchi: Yoqubjon MARQAYEV

Sahifalovchi: Muhammaddiyor NARINOV

Bosishga topshirish vaqti: 21.00.

Bosishga topshirildi: 21.00.